

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TABIY FANLAR" FAKULTETI
"GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI" KAFEDRASI

Umumta'lim maktablarining 7-sinfida "Mirzacho'l tabiiy geografik rayoni" mavzusini o'qitish metodikasi
mavzusidagi

Bitiruv malakaviy ishi

BAJARDI: "Geografiya o'qitish metodikasi"
ta'lim yo'nalishi IV- kurs talabasi
Saydullayeva Z _____

ILMIY RAHBAR: *kat.o'qit. Yo.R.Buranov*

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
Kafedraning _____ sonli bayyonomasi « _____ » _____ 2015 yil.

Navoiy-2015

Navoiy davlat pedagogika instituti
Tabiatshunoslik fakulteti
Geografiya va uni o`qitish metodikasi kafedrasining
1-sonli yig`ilish bayonnomasidan
K O` C H I R M A

Navoiy shahri

27 avgust 2014 yil

Qatnashdilar: kafedra mudiri, kat. o`qit. Buranov Yo.R., dotsentlar: Raxmatov Yu. B., Kalonov B. H., katta o`qituvchilar: Abdiyeva Z.A., B. S. O`rinov, M. M. Qodirova, Sh. Sh. Norov, o`qituvchilar: S.Q.Negmatov, kabinet mudirasi: Fayziyeva Sh.U.

K U N T A R T I B I:

2014-2015 o`quv yilida “Geografiya o`qitish metodikasi” ta`lim yo`nalishi bitiruvchi kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishlari mavzulari va ilmiy rahbarlarini tasdiqlash to`g`risida

E S H I T I L D I: Kafedra mudiri, kat. o`qit. Yo. R. Buranov so`zga chiqib: Bitiruv malakaviy ishi mavzulari Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 1998 yil 31 dekabr № 362- sonli buyrug`iga binoan “Oliy o`quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo`yiladigan talablar” asosida tanlangan.

Geografiya o`qitish metodikasi ta`lim yo`nalishi IV-kurs “A” guruh talabasi Saydullayeva Zilola mavzular orasidan Umumta`lim maktablarining 7-sinfida “Mirzacho`l tabiiy geografik rayoni” mavzusini o`qitish metodikasi mavzusini tanladi va uning ilmiy rahbari sifatida kat.o`qit. Yo.R. Buranov belgilandi.

Q A R O R Q I L I N D I:

Geografiya o`qitish metodikasi ta`lim yo`nalishi IV-kurs “A” guruh talabasi Saydullayeva Zilola Umumta`lim maktablarining 7-sinfida “Mirzacho`l tabiiy geografik rayoni” mavzusini o`qitish metodikasi mavzusi berilsin va ilmiy rahbar sifatida kat.o`qit. Yo.R. Buranov tayinlansin.

Kafedra mudiri:

kat. o`qit. Yo. R. Buranov

5. *Chizma ishlar ro'yxati* (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi)

4. *Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchi(lar)*

№.	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi I.F.Sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi

7. *Bitiruv ishini bajarish rejasi*

№.	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi

Bitiruv ishi rahbari _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriq berilgan sana 20__ yil

Navoiy davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar fakulteti
“Geografiya o`qitish metodikasi” kafedrası
K O` C H I R M A

2015 yil “ ___ ” _____

№ _____ yig`lish bayoni

Qatnashdilar: Kafedraning barcha professor-o`qituvchilari

K U N T A R T I B I:

2014-2015 o`quv yili “Geografiya o`qitish metodikasi” ta`lim yo`nalishi bo`yicha yozilgan bitiruv malakaviy ishlar muhokamasi va ularni himoyaga tavsiya qilish to`g`risida

E S H I T I L D I:

Bitiruvchi _____ ning

Mavzusi: _____

Ilmiy rahbar: Bitiruv malakaviy ishi Davlat ta`lim standartlari va dasturlari talablariga mohiyat va mazmun jihatdan mos keladi.

Q A R O R Q I L I N D I:

Bitiruvchi _____ ning

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Davlat Attestatsiya Komissiyasiga himoya uchun tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

kat. o`qit. Yo. R. Buranov

MUNDARIJA:

KIRISH

I-BOB. MIRZACHO`L TABIIY-GEOGRAFIK RAYONINING

UMUMIY TA`RIFI.....

1.1. Mirzacho`l tabiiy geografik rayonining tabiiy geografik o`rni, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari.....

1.2. Mirzacho`l tabiiy geografik rayonining geomorfologik tuzilishi.....

1.3. Iqlimi va ichki suvlari.....

1.4. Tuproqiari, o'simliklari va hayvonat dunyosi.....

II-BOB. MIRZACHO`L TABIIY GEOGRAFIK RAYONI MAVZUSINI

O`QITISH METODIKASI.....

2.1. Mirzacho`l tabiiy geografik rayoni mavzusini o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llash.....

2.2. Mavzuni o`qitishda elektron darsliklarning ahamiyati.....

XULOSA.....

ADABIYOTLAR RO`YXATI.....

KIRISH

O'zbekistondagi mehnat salohiyatining muhim xususiyati-uning ta'lim darajasi yuqoriligidir.

Karimov I.A

Ta'lim sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, jahon ta'lim standartlari darajasida bilim berish orqali har tomonlama yetuk ijodkor manaviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadryatlar, milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalangan, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol shaxsni kamolga yetkazish kabi vazifalarni hal etishda ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi xususan, har bir fan o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini tubdan o'zgartirishi lozim.

“Ta'lim to'g'risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o'quvchilarga hamda talabalarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmasdan balki ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda. Har bir o'quvchi va talaba dars davomida olgan ko'nikma va malakalar asosida bilimlarni mustaqil egallash zarur bo'ladi.

Respublikamizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ga muvofiq umumiy o'rta ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarni muntazam bilim olish, ularda bilim olish ehtiyojlarini rivojlantirishni o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilishni o'z vataniga, xalqiga sadoqat, mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdek vazifalarni belgilaydi. Bu vazifalarni bajarishda geografik ta'limi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa tabiiy va iqtisodiy geografiya fanlarini o'qitish borasida milliy dasturda qo'yilgan vazifalarni bajarish cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini tajribalar isbotlamoqda. Bularning barchasi geografiya fani o'qituvchisidan yuksak pedagogik mahorat, o'z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qila olishni, o'z ish tajribasini tahlil qilib umumlashtira olishni boshqa o'qituvchilarning tajribasini umumlashtirishi va samarali usullar, metodlardan o'z

ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.

Men ushbu bitiruv malakali ishimda umumta'lim maktablarining 7- sinflarida O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi fanida berilgan *MIRZACHO'L TABIIY GEOGRAFIYASI* mavzusini o'qitishda geografiya ta'limida qo'llaniladigan metodlardan foydalanilgan holda yozishga harakat qildim. Bundan tashqari maktab amaliyoti davomida o'zlashtirilgan ko'nikma va tajribalarimga tayangan holda mavzuni o'qishda qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar, kartalar, jadvallar, grafiklardan foydalanish yo'llarini yoritishga harakat qildim.

Mavzuni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan, yangi axborotlarni to'plash, internet tizimi, gazeta-jurnallardan foydalangan holda ularni tahlil qilishga harakat qildim. Keyingi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilmiy texnika taraqqiyoti va ijtimoiy sohadagi yutuqlar geografiya fanining maqsadi va vazifalariga hamda mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu tushuncha mavzusini o'rganishning deyarli barcha mavzularida mamlakatlar, shaharlar, rayonlar, o'lkalar tabiatini hamda xo'jaligini o'rganishda xo'jalik tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni bilishda katta ahamiyat kasb etadi.

“*MIRZACHO'L TABIIY GEOGRAFIYA*” mavzusini o'rganishda eng asosiy obyekt tabiiy geografik xususiyatlari, aholisi va xo'jaligi yetakchi o'rin egallaydi. Bundan tashqari o'lkalarning kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari, tabiiy sharoiti materiallari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bu materiallar darslikdan materiallarni to'ldirishda ayrim hollarda esa illyustratsiya vazifasini o'taydi.

Umumiy holda aytadigan bo'lsak, umumta'lim maktablarining 7-sinfida o'tiladigan geografiya fanida “*MIRZACHO'L TABIIY GEOGRAFIYA*” mavzusini o'rganishda darsliklarda berilgan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar hamda dunyo qarash g'oyalarini jamlagan holda o'rganildi. Chunki bilim ijtimoiy mehnat va tafakkur muhim bo'lib, mavzuni yoritishda mavjud ma'lumotlarni til vositasi bilan ifoda qiladi.

Ko'nikma esa mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig'indisidir. Bu iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Ayniqsa o`qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va rejalar asosida tayyorlangan jadvallarni mustaqil to`ldirish orqali o`quvchilarda geografik ko`nikmalarni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi

I.BOB. MIRZACHO`L TABIIY-GEOGRAFIK O`LKASI

1.1. Mirzacho`l o`lkasining geografik o`rni, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari

Mirzacho`l keng tog`oldi tekislik bo`lib, Sirdaryo daryosi bilan Arnasoy ko`li oralig'ida joylashgan, umumiy maydoni taxminan 1 mln ga, u shimolda Qozog'iston Respublikasi bilan, janubi-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan, g'arbda Qizilqum o'lkasi bilan chegaradosh. Sirdaryoning chap sohilida joylashgan. Janubda Turkiston tizmasi va Morguzar tog`oldi qiya tekisliklari, janubi-g'arbda va g'arbda Nurota tog`larining sharqiy etaklari, shimoli-g'arb va shimolda Arnasoy ko`li, sharqda Sirdaryo o`zani bilan chegaralanadi. Rel'yefi asosan tekisliklardan iborat. Janubiy qismi tog` etaklaridan iborat bo`lganligi tufayli ancha baland (450—530 m). Janubiy Mirzacho`l kanali mintaqasida 320—330 m. Chordara suv ombori sohilida 257 m ni tashkil qiladi. Asosiy qiyalik janubi-sharqdan shimoli-g'arbgga tomon yo`nalgan.

Geologik tuzilishi. Struktura jihatidan Mirzacho`l hududi Turon plitasi bilan harakatchan G`arbiy Tyanshan orogen oblastining tutashgan mintaqasidagi yirik Toshkent-Mirzacho`l cho`kmasiing g`arbiy qismini egallaydi. Mezo-kaynozoy jinslaridan tuzilgan yirik strukturali elementlar mavjud. Bukilma asosida paleozoyning ohaktosh va slaneslari joylashgan. Bukilmada mezozoy va kaynozoy yoshidagi cho`kindi jinslarning to`planishi sodir bo`lgan. Chirchiq-Mirzacho`l bukilmasining janubiy qismi Mehnatkash-Pistalitov antiklinal zonasi bilan chegaralangan. Antiklinalning sharqiy qismida yer betiga neogen, g`arbida esa paleozoy jinslari chiqadi (Rijkov va bosq., 1962). Antiklinal mintaqa rel'yefida Pistalitov, Baliqlitov, Xonbanditov va sharqda esa Mug`iltov bilan ifodalangan. Mehnatkash-Pistalitov antiklinal mintaqasi bilan Turkiston tog`lari tarmoqlari orasida **Lomakin** bukilmasi joylashgan. U g'arbda Qo`ytosh tog` oralig'idagi cho`kma bilan, sharqda esa Farg`ona depressiyasi bilan tutashadi (Rijkov va boshqalar bo'yicha Qo`qon sinklinalining Oxunboboyev bukilmasi bilan birlashadi). Cho`kmada paleozoyning ohaktosh va slaneslari 1400 m chuqurlikda

joylashgan (To'laganov va boshq. 1971). Bukilma kamroq bo'r, paleogen va katta qalinlikda neogen to'rtlamchi davr yotqiziqlari bilan to'lgan.

Toshkent-Mirzacho'l cho'kmasining tektonik rivojlanishida ikki davrni ajratish mumkin: platformali (yuqori paleozoy-o'rta oligotsen) va platformadan so'ng (yuqori oligotsen-antropogen) Trias va yura davrlarida cho'kma usti tekislangan hududdan iborat bo'lgan, unda qobiq nurash hodisasi yuz bergan. Toshkent-Mirzacho'l cho'kmasida birinchi bukilib va transgressiya yuqori bo'rda sodir bo'lgan. Unda cho'kma epeyrogenik ko'tarilib, quruqlikka aylanadi. Biroq, paleotsenda O'rta Osiyoning janubi-sharqini bukilib tufayli pasttekislik yana suv bilan qoplandi. Dengiz transgressiyasi quyi oligotsenga qadar davom etadi. O'rta oligotsenda alp tektonik xarakter natijasida Toshkent atrofi, Kizilqum va Mirzacho'l tezkorlik bilan ko'tarilib bosqichiga kiradi. Bu xodisa, ayniqsa, neogenda kuchliroq yuz berdi.

Mezozoy, quyi va o'rta paleogenda Mirzacho'lda, asosan qum-gil va karbonatli sulfat formatsiyasiga oid yotqiziqlar atrofdagi tog'lardan yuvilgan va hududda to'planib borgan.

G'arbiy Tyanshaining ko'tarilib tufayli neogen-to'rtlamchi davrda Toshkent atrofi va Mirzacho'lda katta hudud cho'kish yoki bukilib xodisasini boshdan kechirdi. Chukish natijasida tog'lar etagida katta qalinlikda molas qatlami tarkib topdi. Mutaxassislarining fikricha Mirzacho'lning shimoliy va markaziy qismlari oligotsen oxiridan to hozirga qadar 1000 m gacha chukib, tog' etaklari shuncha balandlikkacha ko'tarildi. Paleozoy jinslari 2500—3000 m chuqurlikda joylashgan. Chotqol-Qurama va Turkiston-Nurota tog'larining neogen-to'rtlamchi davrlarda tezkorlik bilan ko'tarilib va Mirzacho'l o'rnining bukilib natijasida katta qalinlikda dag'al va gil-qumoq yotqiziqlar to'planadi. O. A. Rijkov va boshq. (1962) ning ma'lumoticha ushbu jinslarning qalinligi markaziy qismida 1200 m, tog' etaklarida 1000—1200 m, g'arbda 800 m gacha yetadi. Neogen jinslari ko'proq zich gil va alevrolitdan iborat bo'lib, qum va qumtoshli kichik qatlamlarni tashkil qiladi. Neogenning boshlarida Mirzacho'lning yuzasi lasttekislikdan iborat bo'lib, uning markaziy qismida bir necha berk botiqlar mavjud bo'lgan.

Chirchiq, Oxangaron, Keles daryolari janubi-sharqdan Rovatsoy, Pshagarsoy, Xovosoy, Zominsuv va boshqalar janubdan Mirzachul markaziga tomon o'z yoyilmalarini vujudga keltirib, bir-birlariga qarama-qarshi xarakat qilishgan va natijada uning markazida hozirga qadar mavjud bo'lgan pastqamliklar: Yettisoy, Sardoba va Qoraqaroy, Sho'ruzak kabi botiqlar tarkib topgan.

Mirzacho'lda to'rtlamchi davr yotqiziqlarining vujudga kelishida Sirdaryoning ahamiyati katta. Sirdaryo Farg'ona vodiysidan pliotsenda oqib chiqqan. Daryo Farg'ona vodiysidan chiqqandan so'ng Mirzacho'lda yoyilib oqqan va Qizilqumga tomon yunalganligi taxmin qilinadi. Mirzacho'l pleystotsenning boshlapida keng tekislik bo'lib, unda ko'l-kontinental landshaftlar hukmron bo'lgan. Quyi to'rtlamchi davrda Sirdaryo, Chirchik, Ohangaron, Keles dag'al jinslardan iborat prolyuvial-ellyuvial yotqiziqlarni shimoli-sharqiy kismiga elitgan. Soh kompleksi yotqiziqlari qalinligi 150 m gacha boradi. Janubda esa soy va daryolar prolyuvial jinslarni yotqizgan. O'rta pleystotsenda neotektonik harakatlar kuchliroq yuz bermaganligi sababli xamma joyda qalin qumloq;— shag'al tosh — yumaloqlangan toshlar yotqizig'i to'plangan. Toshkent kompleksi qalinligi 100 m dan 220 m gacha boradi. Bu vaqtga kelib Sanzar daryosi Zarafshon havzasidan ajralib, Mirzacho'l tomon oqa boshlagan.

Yuqori pleystotsenda Sirdaryo hozirgi Chordara shahri yaqinida shimolga tomon yorib o'tib, Janadaryo orqali Orol dengiziga karab oqa boshlagan. Mirzacho'lni eng yuqori qatlami yuqori pleystotsen (qumoq va qumloq) yotqiziqlaridan iborat. Ular Sirdaryoning III terrasasini vujudga keltirgan. Ushbu yotqiziqlarning qalinligi 14—40 m. Prolyuvial-allyuvial yotqiziqlar bilan janubdan kelgan prolyuvial jinslar o'rtasidagi chegara tadqiqotchilar tomonidan Yettisoy pastqamligining janubiy yonbag'riga mos keladi, deb tan oladilar, V. G.G'ofurov (1968) esa bu chegarani undan janubroqdan o'tadi, deb ta'kidlaydi.

Golotsenad Mirzacho'lda yangi tektonik harakatlar natijasida Sirdaryoning ikki yosh terrasa va qayiri tarkib topadi. Ularl yossimon qumloq, qumoq, qum va silliqlangan shag'al toshlardan iborat (Sirdaryo kompleksi).


MIRZACHO'L TABIIY-GEOGRAFIK RAYONI






SHARTLI BELGILAR

- Polimetall rudalari
- Ohaktosh
- Marmar
- Qum-shag'al materiallari
- Qurilish toshi
- G'isht-cherchitsa xom ashyosi
- Sement xom ashyosi
- Keramzit xom ashyosi
- Asbest
- Bazalt
- Mineral suv buloqlari
- G'isht-cherchitsa xom ashyosi


BALANDLIK SHKALASI METRLARDA



Tabiatning qiziqarli ob'ektlari



Mirzacho'lning yaxlit tabiiy geografik kesimi



1.2. Mirzacho`l tabiiy geografik rayonining geomorfologik tuzilishi.

Mirzacho`l relyefini geomorfologik tahlil qilish natijasida quyidagi relyef tiplari ajratildi. Strukturali erozion relyef, u Morguzar va Nurota tog`larining shimoliy tarmoqlari, ya`ni quyi paleozoyning ohaktoshlaridan tashkil topgan Pistalitov, Baliqlitov, Yetimtov va Xonbanditovga xos. Pistalitov Ko`ytosh tog`larining etaklarida joylashgan. U shimoli-g`arbiy yo`nalishda cho`zilgan, uzunligi 30 km, kengligi 1,5—3 km, eng baland nuqtasi 542 m. Metamorfozlashgan paleozoy ohaktoshlaridan tashkil topgan, shuning uchun ham chuqqilari o`tkir nayzasimon va yonbag`irlari qoyali. Baliqlitov Pistalitovning janubi-sharqida joylashgan, uzunligi 17 km, kengligi 0,5— 1 km, eng baland nuqtasi 581 m. Shimoli-sharqiy yonbag`irlari, Pistalitovdek, kamroq qiya va o`simlik bilan qoplangan, janubi- g`arbi esa ancha qiya. Ushbu tog` ham quyi paleozoyning ohaktoshlaridan tashkil topgan. Yonbag`irlari qiya va qoyali, cho`qqilari quruq soylar bilan parchalangan Qo`ytosh tog`lari Shimoliy Nurota tizmasining janubi-sharqiy qismini egallaydi. O`rtacha mutloq balandligi 1260 m. Mirzacho`lga qaragan yonbag`irlari qisqa va ancha qiya (18°), juda ham o`ydim-chuqurlashgan.

Skulpturali erozion relyef turi Qushkent gryadasiga mansub. Ushbu gryada, ya`ni qator tepalar, yer sathidan sezilarli ko`tarilgan balandliklar bulib, shimoli-g`arbga tomon qiya, meridional yo`nalishda (Sho`rbuloqsoy, Qo`shkentsoy, Kattasoy, Donasoy va boshq.) jarlar, soylar bilan parchalangan. Darvozaqir (570 m), Chanagul (583 m), Xovatok (690 m), Betta (683 m), Bo`squir (667 m) kabi tepaliklar umumiy relyefda alohida ajralib turadi. Ushbu tepalarning nisbiy balandligi 40—70 m. Shimoliy yo`nalishda gryada asta pasayib, tekislik bilan qo`shilib ketadi. Geologik tuzilishida tepadan 45 m gacha qumloq va qumoqlardan, undan pastda gil va konglomeratlar ishtirok etadi. Ayrim joylarda mergellar uchraydi.

Erozion-akkumulyativ relyef turi Turkiston tizmasi, Qo`ytosh, Baliqlitov,

Pistalitov va boshqalarning tog`oldi delyuvial-prolyuvial jinslaridan tashkil topgan shleyflardan iborat. Shleyf yuzasi tekis, shimol tomon qiyaroq va kamroq parchalangan. Tog`oldi prolyuvial tekisliklar ham shleyfdan iborat. Sangzor, Zominsuv, Rovot, Pshagar, Xovost va boshqa soylarning yoyilmalarini tashkil qiladi. Barcha yoyilmalar quyi turtlamchi davr yoki neogen yoshidagi jinslar ustida vujudga kelgan. Ularning yuzasi jar, suffoziya, krast, cho`kish hodisalari bilan murakkablashgan.

Yassi tog` oralig`idagi delyuvial-prolyuvial tekislik Qo`ytosh tog`lari bilan Pistalitov va Balshushgov, Yetimtov oralig`ida, Turkiston, Morguzar etaklarida tarkib topgan bulib, usti lyossimon qumoqdan tuzilgan bo`lsa, pastda qum, silliqlangan shag`al toshlar qatlamlanib keladi

Yeyilmalarining bir-birlari bilan qo`shilgan etak qismidagi yassi tekisliklar Mirzacho`l kompleksidan tashkil topgan, uning yuqori qatlamlari qumloqdan, quyi gorizontlari esa qumoq-aralash shag`al tosh, qumdan iborat.

Yassi prolyuvial-allyuvial tekislik Mirzacho`lning markaziy qismiga xos, janubidagi yoyilmalari bilan shimolda o`zansimon botiqlar orasida joylashgan. Tekislik 20—35 m chuqurlikka qadar qumoq, qumloq va gil, goxo kum aralash qatlamdan iborat. Qiyaroq berk o`zansimon botiklar — Yettisoy, Sardoba va Qoraqaroy Mirzacho`lning markaziy qismida joylashgan va Arnasoyga yunalgan. Ularning kengligi 9—13 km, chuqurligi 1—5 m. Arnasoy Mirzacho`lni Qizilqumdan ajratib turadigan botiq. Janubda Tuzkon tekisligi va Haydar botig`i bilan tutashib turadi. Botiqning kengligi 10—12 km. Endilikda botiqlar suv bilan band, ya`ni ko`llar tizimidan iborat.

Bilinear-bilinmas to`lqinsimon prolyuvial-allyuvial tekislik Mirzacho`lning shimoliy va shimoli-sharqiy qismlari uchun xos. Tekislik Sirdaryoning III terrasasidir. Yuzasi shimolda tekislikdan, janubi balandligi 1—8 m li tepachalar, botiqlar va qirlar bilan band. To`lqinsimon terrasalashgan tekisliklar quyi 1 va 2-terrasalarni egallaydi. Sirdaryo vodiysi qayir, quyi terrasalardan iborat bo`lib, yuqori (2—3 m) qismi qumoq hamda qumloqdan, quyi qismida ularga qum va siyrak shag`al tosh aralashib keladi. II terrasada o`zansimon berk Sho`ro`zak

botig`i joylashgan.

Mirzacho`l tekisligining janubi-sharqiy qismida Boyovut eroziya massivi mavjud. U Yettisoy, Sho`ro`zak botiqlari va Sirdaryo vodiysidan sezilarli darajada (10—20 m) ko`tarilib turadi. Mirzacho`l kompleksi yotqiziqlardan tashkil topgan.

Tuzkon ko`l tekisligi Mirzacho`l tekisligining janubi-g`arbiy qismida joylashgan. Tekislik uchta allyuvial terrasadan iborat, ular Sirdaryo terrasalariga mos keladi. Hozirda ushbu tekislik qaytgan suvlar ostida kolgan. Eol-akkumulyativ relyef turi Qizilqumoldi qumli to`lqinsimon tekisligiga mansub. U Mirzacho`lning g`arbiy qismida joylashgan. Mirzacho`ldan ushbu tekislikka o`tish sekin-asta yuz beradi: avvalo siyrak, unchalik baland bo`lmagan qumli tepachalar va chuqur bo`lmagan botiqlar uchraydi, tekislikka kirib borilishi bilan ularning balandligi va chuqurligi ortib boradi. Asosan, qum va qumoqdan tashkil topgan.

1.3. Iqlimi va ichki suvlari

Mirzacho'lining tekislikdan iboratligi tufayli va Janubda Turkiston va Nurota tizma tog'larining mavjudligi natijasida iqlimiy sharoitlar o'ziga xos. Qishda sovuq havо massalari hech qanday to'siqsiz tekislikka kirib keladi, yozda esa termik depressiya hukmronidir. O'rtacha yillik harorat shimolda $12,5^{\circ}$ (Sirdaryo, Chinoz, Paxta-Orol stansiyalari), janubda $15,1^{\circ}$ (Ursatevskiy stansiyasi). Iyulning o'rtacha harorati shimolda $26—27^{\circ}$, janubda— 30° (Ursatevskiy stansiyasi) va $-28,5^{\circ}$ (Jizzax). Yanvarning o'rtacha harorati shimolda— 3° , -4° , janubda esa $0,8^{\circ}$, $-1,1^{\circ}$. Atmosfera yog'inlari o'lkada o'rtacha 252—363 mm ni tashkil qiladi, uning shimoli-g'arbida 200 mm dan kam, markaziy qismida 200—300 m, janubda — tog' etaklarida — 300 mm dan ziyod yog'in tushadi. Yog'in ko'proq bahorda (40%) va qishda (25—35%) yog'adi.


Mirzacho'lda shamol harakati turlicha. Shimoli-g'arbida shimoliy shamollar hukmron (Chordara stansiyasida shimoliy shamollar yillik yunalishining 45% ni tashkil qiladi), janubi-sharqda janubi-sharqiy shamollar ustuvor. Shimoli-sharqiy qismida qishda janubi-sharqiy va janubiy shamollar (o'rtacha tezligi sekundiga 1,8—2,9 m), yozda esa shimoliy va shimoli-g'arbiy shamollar esadi. Mirzacho'lining janubi uchun janubi-sharqiy va sharqiy yunalishlardagi shamollar, ayniqsa, kuchli esadi. Ushbu shamollar, odatda «Ursatevskiy» nomi bilan mashhur. Kuz va qishda mazkur shamol Farg'ona vodiysi bo'ynidan Mirzacho'l tekisligiga katta kuch bilan chiqib kelishi tufayli shamol tezligi goho sekundiga 46 m gacha yetadi. Ko'proq 20 m tezlikda harakat qiladi.

Grunt suvlari. Yer osti suvlarining to'yinishi Turkiston va Nurota tog' tizmalarining yer usti va yer osti suvlari, Sirdaryo va uning o'zani ostidan, Chotqol va Qurama tizmalaridan yunalgan yer osti oqimlari, atmosfera yog'inlari, sug'orish kanallari va nihoyat sug'oriladigan dalalardan zaminga singgan suvlar hisobiga yuz beradi. Chordara suv ombori va Arnasoy, Haydarko'lining suv sathlari qanchalik baland bo'lsa, grunt suvlarining sathi ham shuncha yer yuzasiga yaqin


joylashadi. Suv sarfida, asosan bug`lanish va kollektorlar oqimi katta o`rin tutadi.

Yoyilmalarining boshlanishi va o`rta qismlarida, tog` oralig`idagi botiqlarning baland qismlari, Lomakin platosining janubiy chekkasi, tog`oldi shleyflari mintaqalarida grunt suvlarining sathi 20—120 m, joylarda 5 m dan pastda barqaror joylashgan.

Janubda suvlarning minerallashuv darajasi har litrda 1-3, shimolda esa 3—5, ba`zan 10 g ni tashkil qiladi, gidrokarbonat-kalsiy va sulfat-magniyli toifaga oid. Yeyilmalarining etaklarida grunt suvlarining sathi yer betiga 1—3 m gacha yaqnlashadi, mineralizatsiya darajasi har litrda 5—10 g, xlorid-sulfat guruhiga mansub.




Mirzacho`l tekisligi yer osti suvlarining harakati va sho`rxoklarning paydo bo`lishi



*Mirzacho'lda sug'orishdan avval grunt suvlarining sathi
(N.A. Dimo ma'lumoti bo'yicha).*

- 1) 1,7 - 2,5 m; 2) 2,5 - 5 m; 3) 5 - 10 m; 4) 10 - 15 m;
5) 15 - 20 m; 6) 20 m dan pastda.



Mirzacho'lda grunt suvlarining hozirgi vaqtdagi sathi

(1998 yil) 1) 1 - 2 m; 2) 2 - 3 m; 3) 3 - 5 m;

4) 1 - 3 m; 5) 5 - 10 m;

(A. Rafiqov bo'yicha)

Mirzacho'ning markaziy qismi ancha tekis bo'lganligi uchun grunt suvlarining harakati ancha sekin. Sug'orish jarayonida ularning sathi 2—5 m gacha ko'tariladi. Minerallasuv darajasi har litr suvda 3—5, joylarda 5—10 g dan iborat, asosan sulfat, xlorid-sulfat turiga taalluqlidir. Mirzacho'ning shimoli-g'apbiy qismlarida grunt suvlari sathi 2—3, joylarda 3 m dan pastroqda joylashgan, ko'proq xlorid-sulfat tipi hukmron. Sirdaryo vodiysida grunt suvlari sathi 1—2, ba'zan 2—3 m ni tashkil qiladi va minerallasuv darajasi 3—5, joylarda 5—10 gr.

Yer usti suvlari. Mirzacho'lda muntazam oquvchi daryo tizimlari mavjud emas. Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'irlaridan boshlanuvchi bir necha soylar va daryolar mavjud. Eng yirik daryolardan biri Sangzor. Uning umumiy uzunligi 123 km, havzasining maydoni 2580 kv. km. Daryo Turkiston tizmasidagi qor-muzliklardan to'yinadi, yozda to'lib oqadi, maksimal o'rtacha oylik suv sarfi sekundiga 12,2 kub. m, o'rtacha oylik sarfi esa sekundiga 6,1 kub. m. Daryo suvlari Jizzax voxasini sug'orishda foydalaniladi. Zominsuv xam Turkiston tizmasining eng yurqori yonbag'irlaridagi qorlik va muzliklardan boshlanadi, Ko'lsuv, Qizilmozor va Qashqasuv soylarining o'zaro qo'shilishidan vujudga keladi. Suv yig'ish maydoni 555 kv, km, o'rtacha ko'p yillik suv sarfi sekundiga 2 kub. m, eng ko'pi 4,8, eng (kami 1 kub. m dan iborat. Eng ko'p oqim iyun oyiga to'g'ri keladi. Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'irlaridan boshlanadigan soylar Rovotsoy, Sayxonsoy, Turkmansoy, Xo'jamushkentsoy, Pshagarsoy, Achisoy, Qo'shchisoy, Jalairsoy, Xovataksoy, Bosmandisoy va bonshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin. Ularning jami suv sarfi sekundiga 20,74 kub. m ni tashkil etadi. Sirdaryoning chap sohilida o'nlarча turli kattalikdagi qayir ko'llari va botiqlar mavjud, ular daryoning qolgan o'zanlarida joylashgan, lekin kollektor tarmoqlari qurilishi natijasida ularning asosiy qismi qurigan va sholizorlarga aylantirilgan. Mirzacho'l yerlari o'zlashtirilishi munosabati bilan bir necha yirik magistral kanallar va kollektorlar qurildi. Masalan, Janubiy Mirzacho'l kanali (bosh qismidagi suv sarfi sekundiga 500 kub. m) uzunligi 126 km. Shimoli-sharqiy kanal (avvalgi Kirov nomli), bosh qismidagi suv sarfi 230 kub.m. Jizzax cho'lida

DM-1, DM-2 mashina kanallari, Tojikistonning Zafarobod tumanida TM-1, TM-2 mashina kanallari va boshq. Markaziy Mirzacho'l, Pogranichnyy, Sho'ruzak kollektorlari mavjud. O'lkaning g'arbiy kismi Haydar botig'iga tutashadi. 1968—1969 yillarda yog'in-sochinning ko'p tushishi natijasida Sirdaryo suvining bir qismi unga tashlangan edi (20 kub. km), oqibatda botiq ko'lga aylandi, keyinchalik Mirzacho'ldan kollektor suvlarini (yiliga 2 km³ dan ziyodroq), muntazam tushishi tufayli Haydar va Tuzkon botiqlari ham suv ostida qoldi. 1999 yilda ko'llarda 38 km³ suv yig'ilgan.

1.4. Tuproqiari, o'simliklari va hayvonat dunyosi

Mirzacho'lda bo'z tuproqlarning ikki kichik turi, ya'ni tipik va och bo'z tuproqlar tarqalgan. Mazkur turdagi tuppoqlap o'rtasidagi chegara taxminan 450 m mutlaq balandlikka mos keladi. Tipik bo'z tuproqlar yoyilmalarining boshlanish qismi, tog'oldi shleyflarining yuqori qismlarida keng tarqalgan. Ushbu tuproqlar sho'rlanmagan, lekin qiyalik kattaroq bo'lgan joylarda eroziyaga uchragan. Yuqori qismi (0—3 sm) da 3—4%, quyi (0—10 sm) da 1,5—2,5% gumus mavjud.

Och bo'z tuproqlar yoyilmalarining

chekka kismlarida, Lomakin platosining shimol tomonida, tog'oldi shleyflarida uchraydi. Ushbu tuproqlarning yuqori gorizontlarida karbonatlarning miqdori 6—7%, quyi tomon esa 10—11% gacha ortadi. Tuproqning quyi qatlami (35—45 sm) da gips tarkibi 1—2% ni tashkil etadi.

Mirzacho'lning asosiy qismi sug'orma bo'z-o'tloq tuproqlari bilan band bo'lib, namlikning bug'lanishi natijasida qatlamlarda turli miqdorda tuzlar to'plangan. Sug'oriladigan tuproqlarda tuz kuproq eng yuqori qatlamda yig'iladi (1—2%, ba'zan undan ko'proq;), quyi tomon kamayib boradi. Sirdaryoning quyi terrasalarida o'tloq-tuproqlar tarqalgan va ular ham turli darajada sho'rlangan. Mirzacho'lda juda zich holda kollektor-zovur tarmoqlari va tik zovurlar mavjudligi tufayli tuproqlarning haddan tashqari sho'rlanishining oldi olingan. O'zansimon pastqamliklarda (Yettisoy, Sardoba) sho'rxoklar hukmron.

Mirzacho'l yerlarining asosiy qismi to'liq o'zlashtirilgan, faqat Yettisoy pasgkamligi va Janubiy Mirzacho'l kanalining janubiy qismidagi mintaqa o'zlashtirilmagan, chunki yerlar yoyilmalarning chekka qismida joylashganligi tufayli anchagina gipslashgan va tuz miqdori juda bisyor. Irrigatsiya va melioratsiyaning eng so'nggi yutuqlari Mirzacho'lda sinovdan o'tkazilishi sababli o'lkada sug'orish madaniyati eng yuqori, sug'orish me'yori gektariga 7,5 ming kub. m, grunt suvlari sathi tik zovurlar yordamida deyarli bir maromda ushlab turiladi, binobarin sho'rlanish jarayoni ancha boshqariladi, lekin shunga karamasdan meliorativ ahvolni juda yuqori darajada deb bo'lmaydi

O'simliklari. Mirzacho'l tabiiy o'lkasida cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalariga xos o'simliklar uchraydi.

Cho'l o'simliklari, asosan, efemerlar — *sho'rozak, qorabosh, burgan, lolaqizg'aldoqlardan* iborat bo'lib, ular jazirama issiq boshlanishi bilan qovjiray boshlaydi. So'ngra issiq va qurg'oqchilikka chidamli *shui'oq, chalov, sho'ra, yulg'un* va *yantoqlar* yozda ham o'saveradi. Sho'rxok joylarda *tatir, burgan, sho'rjriq, yulg'un, tuyaqorin* kabi o'simliklar o'sadi.

Mirzacho'lning tog' etaklari va undan yuqorida *na'matak, irg'av, zirk, pista, bodom, olma, olcha* kabi buta va mevali daraxtlar o'sadi. Nurota tog'larida yong'oqlar. Turkiston tog' tizmasining 1500—2500 m balandlik qismida archazorlar uchraydi. 2800—3000 metrdan balandda *qo'ng'itbosh, rang, yovvoyi arpa* kabi o'tlar o'suvchi yaylov mintaqasi boshlanadi. Sirdaryo bo'yidagi to'qaylarda *yulg'un, tol, turong'il, jiyda* kabi o'simliklar o'sadi.


Hayvonot dunyosi. O'lkaning katta qismida cho'l hayvonlari yashaydi. ulardan eng muhimlari kemiruvchilardan *qo'shoyoq, yumronqoziq, quyon*, sudralib yuruvchilardan *kallokesak* va *ilon*, yirtqichlardan *bo'ri, tulki, bo'rsiq*, hasharotlardan *chayon, falanga*, sutemizuvchilardan *tulki, bo'ri, jayron* uchraydi. Qushlardan *to'rg'ay, so'fito'rg'ay, boyo'g'li* yashaydi. Sirdaryo to'qaylarida *to'qay mushugi, to'ng'iz, chiyabo'ri*, qushlardan *qirg'ovul, o'rdak va g'ozlar*. Sirdaryoda *ondatralar* yashaydi.

Mirzacho'l janubidagi tog'larda yirik sutemizuvchi hayvonlardan *kiyik, tog' takasi, alqor*, yirtqichlardan *bo'ri* va *tulki* shuningdek, *silovsin*, qushlardan *bedana, bulbul, kaklik, ul* or. *kalkat, lochin, qirg'iy, burgut* yashaydi.

Daryo va suv havzalarida *zog'orabaliq, olabug'a, laqqabaliq, cho'rtanbaliq, qorabaliqlar* uchraydi.

DAVLAT QO'RIXONALARI VA BUYURTMA MASKANLARI


Nomlar	DAVLAT QO'RIXONALARI	Maydoni (ga)
"Baday To'qay" davlat qo'riqxonasi	Ixtisosligi Qayir-to'qay. Buxoro bug'unisi tabiiy ko'paytirish, tarakzorlar (turangah)ni muhofaza qilish	6462.1
Hiso davlat qo'riqxonasi	Tog'-o'rmon. Barcha tabiat komplekslarini o'rganish va muhofaza qilish	80 986
"Jayron" ekomarkazi	Cho'l. Kamyob hayvonlar turarini ko'paytirish	7 153
Kinob davlat geologik qo'riqxonasi	Tog'. Paleontologik-stratigrafik ob'ektlarni o'rganish va muhofaza qilish	5378
Nurcila bog'-yong'oq davlat qo'riqxonasi	Tog'-yong'oq. Yung'oqzorlarning tabiiy genotipi, Qizilqum (Seversov) qo'yini tabiiy ko'paytirish	21 137.5
Qizilqum davlat qo'riqxonasi	To'q-qum. Buxoro bug'unisi tabiiy ko'paytirish	10311.05
Surxon davlat qo'riqxonasi	Tog'-o'rmon. Buxoro shochi eshki (Moro)ni tabiiy ko'paytirish, arxazoptarlarni muhofaza qilish	23802.38
Ugum-Chotrol davlat milliy tabiat bog'i	Tog'-o'rmon. Tabiat komplekslarini saqlash, tarbiy va mehnat yodgorlikdani muhofaza qilish	35 256
Zarafshon davlat qo'riqxonasi	Cho'l. Archa o'rmonlar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish	2352
Zomin davlat qo'riqxonasi	Tog'-archa. Archa o'rmonlari va hayvonot dunyosini muhofaza qilish	26948.6
Zomin xalq bog'i	Tog'-o'rmon. Archa o'rmonlari, o'simlik va hayvonlarning kamchil turarini saqlash va muhofaza qilish	24110.3
Chotrol davlat boshtera qo'riqxonasi	Tog'-o'rmon. Barcha tabiat komplekslarini o'rganish va muhofaza qilish	35 809.assiy zona 12 218-buffir zona



Nomlar	DAVLAT BUYURTMA MASKANLARI	Ixtisosligi	Maydoni (ga)
"Anasoy" davlat buyurtma maskani	Ko'l. In qo'yadigan va uchib o'tuvchi suvda suzuvchi qushlarni muhofaza qilish	63 300	
"Gurlan" davlat buyurtma maskani	To'qay. O'ng ovillarni muhofaza qilish	587	
"Dengizko'l" davlat buyurtma maskani	Ko'l. In qo'yadigan, uchib o'tuvchi va qishlab qoluvchi, suvda suzuvchi qushlarni muhofaza qilish	50 000	
"Qoraqir" davlat buyurtma maskani	Cho'l. Jayron va qichilak g'uluvchi, suvda suzuvchi qushlarni muhofaza qilish	30 000	
"Qoraqum" davlat buyurtma maskani	Tog'. Qoraqumni muhofaza qilish	200	
"Qoraboo" davlat buyurtma maskani	Cho'l. To'xtov va qichilak, jayron yashash joylarini muhofaza qilish	40 000	
"Qo'shiraoboo" davlat buyurtma maskani	Cho'l. To'xtov va qichilak, jayron yashash joylarini muhofaza qilish	16 500	
"Nurobod" davlat buyurtma maskani	Cho'l. Saqozurolarni, to'xtov va qichilak, jayron muhofaza qilish	29 000	
"Oqtoy" davlat buyurtma maskani	Cho'l. Cho'l muqasimni muhofaza qilish	2 500	
"Saygachiy" davlat buyurtma maskani	Cho'l. Sayg'oqni muhofaza qilish	1 000 000	
"Sarmish" davlat buyurtma maskani	Tog'. Kamyob va dorivor o'simliklar, qo'yalaridagi qadimgi suratlarni muhofaza qilish	2 520	
"Sechenko" davlat buyurtma maskani	Ko'l. Balog'larini, uchib o'tuvchi qushlarni muhofaza qilish	7 037	
"Sudocho" davlat buyurtma maskani	Ko'l. Uchib o'tuvchi suvda suzuvchi qushlarni muhofaza qilish	50 000	
"Xorazm" davlat buyurtma maskani	Ko'l. Cho'l zonsi kamyob hayvonlarni muhofaza qilish	11 300	
"Xubara" davlat buyurtma maskani	Cho'l. To'xtov va qichilakni muhofaza qilish	25 000	
"Xubara" davlat buyurtma maskani	Cho'l. To'xtov va qichilakni muhofaza qilish	23 730	

SHARTLI BELGILAR



- Qo'riqxonalar chegaralari
- Buyurtma maskanlar chegaralari
- Karta mashtabiga mos kelmaydigan buyurtma maskanlar
- Masshtab 1:5 500 000



LANDSHAFT KARTASI



Landshaftlar	Tog'lik			Tog' oldi	Tekislik		
	Baland tog'lar	O'rtacha baland tog'lar	Past tog'lar		Yakka past tog'lar, qoldiq do'ngliklar	Tahqifi	Eol
Doimiy qonirliklar	1						
Qorli mintaqa yoni	2,3						
O'tloq dasht	4						
O'rmon	5,6	7					
Quruq dasht	8	9					
Chala cho'l				10,11			
Cho'l			12	13,4,15	16,17,18	19,20,21,22	23,24
Sho'rxok							25
To'qiy							26
Madaniy				34			27
							28,29,30
							31,32
							33



LANDSHAFTLARNING O'SIMLIKLAR VA TUPROQ OPLAMI


- Muziklar va qonirliklar.
- Och-qo'ng'ir tuproqlardagi alp o'tloqlari.
- Och-qo'ng'ir tuproqlardagi tog' qurg' oqchil o'simliklar guruhilari.
- Och-qo'ng'ir tuproqlardagi betaga va yer bag'irlab o'suvchi archilar.
- Jigarrang tuproqlardagi maromida ham talab qiluvchi archa guruhilari.
- Jigarrang tuproqlardagi qurg' oqchil archa o'rmonlar va butalar.
- Tog' bo'z tuproqlardagi shuvoq, bug'doyliq, betaga va toklililar guruhilari.
- Oddiy va tog' bo'z tuproqlardagi shuvoq guruhilari va talmi yerlar.
- Oddiy va tog' bo'z tuproqlari efemeri, qo'zuloqli, shuvoqli, oqquroyli guruhilari va laimi yerlar.
- Oddiy bo'z tuproqlari efemeri va karrakli guruhilari.
- Bo'z - oq'ng'ir tuproqlardagi shuvoqli guruhilari.
- Och va oddiy bo'z tuproqlardagi efemertar va efemeroidlar, ba'zan shuvoq aralashadi.
- Och bo'z va cho'l qumli tuproqlardagi shuvoqli guruhilari.
- Bo'z bo'z va cho'l qumli tuproqlardagi shuvoqli va boyilchilil guruhilari.
- Bo'z - oq'ng'ir tuproqlardagi burgan guruhilari.
- Bo'z - oq'ng'ir tuproqlardagi burgan guruhilari.
- Bo'z - oq'ng'ir tuproqlardagi burgan, boyilchil shuvoqli guruhilari.
- Cho'l qum tuproqlardagi oq saksosul guruhilari, ilqoq, psammotitli butalar va o'tlar aralashadi.
- Cho'l qum tuproqlardagi oq saksosul guruhilari, shuvoq aralashadi.
- Cho'l qum tuproqlardagi oq saksosul guruhilari va qora saksosul guruhilari.
- Cho'l qum tuproqlardagi juz' un guruhilari.
- Taqirli tuproqlardagi sho'ralar aralashgan siyrak qora saksosul va cho'l-qum tuproqlarda oq saksosul guruhilari.

- Bo'z oq'ng'ir tuproqlardagi shuvoq, keyreyk va asrraqal guruhilari.
- O'tloq - laqir tuproqlar va sho'rxoklardagi bir yillik sho'ralar, sho'rga moslashgan butalar va yarim butalar.
- Taqirli tuproqlar va sho'rxoklardagi bir yillik sho'ralar qora saksosullar va yulg'unlar guruhilari.
- Sho'rxoklar va sho'r tuproqlardagi siyrak bir yillik sho'ralar.
- Sho'rxoklardagi qora saksosul guruhilari.
- Sho'rxoklardagi sho'rga moslashgan butalar va yarim butalar.
- O'simlik o'smaydigan qatqaloq tuzlar.
- O'tloq va o'tloq - laqir tuproqlardagi butali va daraxtli g'ozlarda va sho'rxoklardagi qemish g'ozlarda; bir yillik sho'ralar aralashadi.
- Madaniy landshaftlar.

Masshtab 1:5 500 000

Sudralib yuruvchi hayvonlar.

- 1) Kulvor ilon. 2) Agama 3) Echkemar 4) Ko'zoynakli ilon. 5) Taqirko'z



Echkemar



II-II.BOB. MIRZACHO`L TABIIY GEOGRAFIK RAYONI

MAVZUSINI O`QITISH METODIKASI

2.1. Mirzacho`l tabiiy geografik rayoni mavzusini o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llash

Ta'lim-tarbiyaning mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, yangi texnologiyalarga aylanib bormoqda.

Geografiya ta'limida pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoni sifatida ishtirokchilarning faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonning pirovard maqsadi barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish bo'lib, asosan quyidagilardan tarkib topadi:

- ta'lim-tarbiya berish;
- axborotlarni uzatish;
- mustaqil fikrlashni o'rgatish
- bilim-ko'nikma, malakalarni o'rgatish va o'zlashtirilishiga erishish;
- turli usul va uslublarni qo'llash va takomillashtirish;
- diagnostika, monitoring olib borish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida insonparvarlik, vatanparvarlik tamoyillariga asoslanish;
- o'quvchilarni tayyorgarlik darajasini, psixologik, fiziologik, yosh xususiyatlarini, gigiyenik talablarini hisobga olish va hokazolar;

Shu asosda geografiya texnologiyasida ta'lim tizimining metodologik, didaktik, pedagogik, psixologik, fiziologik, gigiyenik asoslarini yaratish lozimdir. Ta'limning metodologik asosi-dars jarayonini amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanishini belgilaydi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi pedagogik texnologiya uchun zaruriy shartdir.

Ta'lim tizimining didaktik asosi-ta'lim-tarbiya hoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta'lim-tarbiya vazifalarning nazariy jihatdan to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyaning pedagogik asosi-zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilishi, manzili, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uning diagnostikasi, monitoringi, o'quv-mavzu rejalar va shu kabilarning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ta'minlanadi.

Pedagogik texnologiyaning psixologik asosi-psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ta'limning har bir bosqichida o'quvchilarning psixologik xususiyati hisobga olinadi.

Pedagogik texnologiyaning fiziologik asosi o'quvchilarning turli yoshdagi fiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat, bunda o'g'il va qiz bolalar fiziologiyasidagi farqlar alohida hisobga olinadi.

Pedagogik texnologiyaning gigienik asosi-ta'lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat bo'lib, bunda turli zararli va ortiqcha ta'sirlarni bartaraf qilish, o'quv-xona sharoiti: yoritganlik, harorat, havoning tozaligi, o'qituvchi va o'quvchining ish o'rnini, jihozlar, o'quv mashg'ulotlarining me'yorlari, didaktik vositalarining qulayligi ilmiy asosda belgilab boriladi. Yuqorida keltirilgan asoslar umumlashtirilsa, geografiya ta'limida texnologiyaning nazariy va amaliy asoslari kelib chiqadi.

Pedagogik texnologiyadan foydalanish hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli bo'lib, uni geografiya ta'limi tizimida qo'llash va amalga oshirish lozim deb o'ylaymiz.

O'quvchilarda ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish ularda geografik madaniyatni shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy darslarda dars-seminar, dars-konferensiya, dars-sinov, dars-o'yin kabi ta'limni tashkil qilish shakllaridan keng foydalaniladi. Hozirgi zamon noan'anaviy darslari o'nlab ijobiy xususiyatlarga ega: ularni qo'llash orqali o'qituvchi faoliyatni tashkil etishda ijodkor bo'lishga, o'quv faoliyatida o'qituvchi va o'quvchining hamkorligi yetakchi bo'lishiga, o'quv

jarayoni paytida o'quvchilar ortasida o'zaro muloqotlar, suhbatlar, tortishuvlar bo'lishiga, muammoli savollar va topshiriqlar, har xil murakkablik darajasidagi test savollari orqali o'quvchilarda ijodiy faoliyatlarni rivojlantirishga erishish mumkin.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchilarning fanlarni yaxshi o'rganishlari, o'qitilayotgan mavzuni muammoli savol va topshiriqlar yordamida o'zlashtirishlari, ularda ijodkorlik, fikrlarini teran va aniq ifodalashga o'rgatish, o'rtaga tashlangan savolga keng mulohaza yuritib javob bera olish qobiliyatini shakllantirish maqsadlarida yuzdan ortiq noan'anaviy dars usullaridan foydalanilmoqda. Bu dars usullari mavzularni o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi, oquvchilar ongida ancha vaqtgacha esdan chiqmaydi, ularni teran mushohada yuritishga va darsdagi ishtiroklarini faollashtirishga yordam beradi.

Noan'anaviy darslarning asosiy maqsadi o'quvchilarning mustaqil bilim olish mexanizmiga asoslanganligidadir. Noan'anaviy darslarning an'anaviy darslardan farqli jihatlari quyidagilarda deb hisoblaymiz:

- Noan'anaviy darsda tanlangan dars mavzusi bo'yicha o'quvchi o'z nuqtai nazarini bayon etadi, garcha xato bo'lsa ham o'quvchining fikri oxirigacha eshitiladi.

- Noan'anaviy darsda an'anaviy darsdagidek tashkiliy, o'tgan mavzuni so'rash, yangi mavzu bayoni va darsni mustahkamlash singari bosqichlari bo'lmaydi. Har bir darsning o'ziga xos shakli bo'ladi.

- Noan'anaviy darsda aniq bir ta'limiy metod yoki usul hukmronlik qilmaydi. Darsning bo'rish jarayonida ta'limiy metodlar va usullar almashina boradi.

- Noan'anaviy darslarda standart didaktik ko'rgazmalar bilan birga, o'quvchilar kuchi bilan yaratilgan ko'rgazmalar ham qo'llaniladi.

- Noan'anaviy darslarda o'quvchi shaxsi birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash bunday darslarning tashkiliy asosi bo'ladi.

- Mustaqil ishlar, guruhiy ishlash, o'zaro juftlikda ishlash, o'zaro muloqotda bo'lish, ta'limiy o'yinlar darslarning mazmunini tashkil etadi.

- Noan'aviy darslarda birgina darslik emas, qo'shimcha badiiy, ilmiy, atlas, matbuot va boshqa materiallaridan foydalaniladi.

- Noan'aviy darslar o'quvchilarning dars-mavzusini o'zlashtirib olish imkoniyatini kengaytiradi.

Malakali va ijodkor o'qituvchi dars jarayonida qaysi noan'aviy dars usullarini qo'llashni mavzuning mazmun mohiyatidan kelib chiqib ularni to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilim darajalari, psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda amalga oshiradi. O'quvchilarning Mirzacho'l tabiiy geografiyasi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

2.2. Elektron darslik yartishda ko'rgazmali qurollarning ahamiyati

Axborotni ko'z oldiga keltirish deb anglash jarayoniga yoki ko'z, yoki quloq, yoki baravariga ikkalasi yoki hissiyotlarni ulashdir. O'quv dasturini anglash uning ko'z oldiga keltirishdan boshlanadi. Shuning uchun barcha sezgi organlari ishga tushadi, shu tufayli tez va oson o'quv matnini o'zlashtiriladi. Tasviriy material bo'lishi kam, u tushunarli va o'zaro bog'langan, aktual bo'lishi kerak. Bunda tasvir vositalaridan foydalanadi.

Yaxshi jihozlangan o'quv matni umumiy holatga ijobiy ta'sir etadi. Ranga qiziqish oshadi. Diqqat va faoliyat uyg'unlashadi, kuzatuvchanlik va sezgirlik oshadi, xotira tayyorlanadi, fikrlash jarayoni yengillashadi, o'quv materiali o'zlashtiriladi.

Ya.Kamenskiy XVIII- asrda ko'rgazmalilikni shunday ta'riflaydi: har bir narsani hissiyotlar bilan anglash, o'rganilayotgan obyektning his-tuyg'ular orqali anglash, maket va modellarni o'quvchilar orqali kuzatish, o'qitish ko'rgazmaliligini avval aniq obyektning anglash deb tushunilgan, masalan: real predmet va hodisalar o'z boshlang'ich ko'rinishida mashinalar modellari, ko'rgazmali tarqatma material, jadvallar, va ayrim chizma dasturlar, o'quv kinofilmlar. Zamonaviy didaktika shuni ta'kidlaydiki, ko'rgazmalilik tushunchasi bu nafaqat konkret vizual predmetlarga tayanish, balki modellarga ham model — bu nima? Odatdagi ko'rgazmalilikdan farqi nimada? Model — bu obyekt yoki obyektlar turlarining shartli ko'rinishi. O'rganilayotgan obyektning tashqi ko'rinishi haqida tasavvur hosil qiluvchi natural predmetlar anglatadi. Model esa faqat hodisa va jarayonning ayrim, zarur bo'lgan tomonlarini ko'rsatadi. Bu tomonlar to'g'ri aks ettirilishi zarur, o'rganilayotgan hodisa uchun izomorf. O'rganish vositalari ko'rgazmali bo'lishi uchun hodisa modelga aylantirilishi kerak, uning asosiy xossalarini ko'rsatish (ya'ni model o'rganilayotgan hodisaga izomorf bo'lishi kerak), modelning tushunarligini ta'minlaydi. Izomorflik va oddiylik bu ko'rgazmalilikning farqli tomonlari, o'quv modellarining teoriya tushunchalari shakllanishidagi o'rni Davo'dov orqali ilmiy fikrlash asosi deb topildi. O'quv modellarini u ko'rgazmalilik va tushuncha uyg'unligi deb ta'riflaydi.

Modellashni Davo`dov ko`rgazmalilikni to`ldiruvchi didaktik prinsip deydi.

Tasvirlar soni va turlari. Elektron dasturning maqsadi — o`quv materialini hamma yutuqlarini saqlab qolish emas, balki kompyuter orqali tasvir uchun ko`rgazmalarni tanlash. Tasviriy material turi va soni qaysi tartibda tanlanadi. Bizningcha, o`quv matni tushunilishi qiyin joyida tasvir kiritiladi, qo`shimcha ko`rgazmali tasvir orqali mavzuviy-mazmuniy bloklarining uyg`unlashishi va tartiblashishi uchun. Kompyuter texnologiya elektron dasturga hamma axborotni sig`dirish maqsadi qo`yilmaydi. Bu o`quvchini matn parchasini o`rganishdan chalg`itadi. Talabaga beqiyos ozodlik berish xavfli. Rasmdan lug`atga, boshqa gipermatnga ko`chish maqsadga muvofiq emas. Lekin, uni ozodlikdan mahrum etish ham kerak emas. Ongli kelishuv zarur o`qitish usulidagi bir chiziqlik yoki modullik yaratilishi kerak. Gipermatnda harakatli rasmlar ko`pligi, dinamikasi bir chiziqlik bilim olishni susaytiradi, bu animatsiya to`liq bilim olishga xalaqit beradi. Bir mavzuda nechta tasvir bo`lishi kerak? Bu nazariy o`quv dasturining mazmuni va harakteriga bog`lik. Ko`rgazmalarga boy betlar yoki elektron matnlar keraklimi? Bir marta tasvir qo`rib, ko`p marta elektron matnni o`qigandan yaxshiroq. Misol uchun siz yumuq ko`z bilan notanish xonaga kirib, yoningizdagidan xonani tasvirlashni so`raysiz, unga 3-5 sekund ichida ko`rgani ma`qul. Xonani tasvir vositasi orqali qanday tasavvur etsa bo`ladi? Tasvir soni va beti aniq belgilanmaydi, quyidagi faktorlari asoslanadi:

- O`quv matnini mazmuni va harakteriga ko`ra;
- O`quv uslubiga ko`ra;
- O`quv muassasasiga ko`ra.

Ko`rgazmali vositalar asosida o`qitish tasnifi. Mazmun va xarakteri bo`yicha tasnif 3 guruhga bo`linadi:

1. Tasvirli ko`rgazmalilikka:

- rasmlar reproduksiyasi;
- arxitektura va haykataroshlik fotoreproduktsiyasi;
- o`quv matnlar uchun yaratilgan o`quv rasmlar;
- rasm va applikatsiyalar;

- videoparchalar;
- audioparchalar;
- videofilmlar kiradi.

2. Shartli-chizmalı ko'rgazmalilikka:

- jadvallar;
- sxemalar;
- blok-sxemalar;
- diagrammalar;
- grafiklar;
- xaritalar;
- planshetlar kiradi.

3. Predmetli ko'rsatmalilikka:

- muzey eksponatlari;
- maketlar;
- modellar.

Jadvallar turlari. Tasvirni oddiy va samarali vositasi bu jadvallar. Ular yordamida asosiy mazmunni aniqlash, o'rganilayotgan materialni osonlashtirish va fikrni eslab qolish, tushuncha va qoidalarni umumlashtirish mumkin.

Doirali jadvallar — asosiy chizma elementlaridan biri bu doira. Uslubiy qiymati shundaki, materialni kompozitsiyasini ososhlashtiradi, chegaralashtiradi va umumlashtiradi.

Sxema — materialning grafik ko'rinishi, hodisalarning ayrim xossalari shartli belgilar orqali beriladi, aloqa va muloqotlar esa qismlarni o'zaro joylashtirilishi va ikki tomonlama ko'rsatkichlar bilan beriladi.

Dinamik — animatsion — obyektning harakati samarasini belgilashdir, turli statik jadval tuzishga imkon beradi. Qulayligi shundaki, materialni qismlab berish, oz-ozdan, jadvalni o'zgartirish imkoni bor, bir elementni boshqasi bilan o'zgartirish mumkin. Harakatli jadvallarni qulayligi o'rganish va mustahkamlashga yordam beradi.

O'quv axborotini taqsimlash, chizma tasvir obyektlashni to'g'ri tanlash

harakatning samarasiga olib keladi. Turli qismli uzatishlarni tarqatish imkoni kompyuter texnologiyalar orqali bajariladi.

Blok-sxema. Tasvirning shartli-chizma turini ko'rib chiqamiz. Sxema bu materialni chizma tasviri hodisalar qismlari va xossalari shartli belgilar orqali beriladi, aloqa va muloqotlar esa qismlarni o'zaro o'rnatilishi va ikki tomonlama ko'rsatkichlar orqali. Jadvallar kabi sxemalar turli formatda bo'ladi, ular ekran betini qismini egallaydi, butun betni yoki bir necha betli bo'ladi.

Chizma vositalar yordamida sxemani yana shunday jihozlasa bo'ladi:

- turli ranglar orqali;
- rasmlar orqali;
- shriftlar tanlash orqali;
- aniq sonli qismlar va aloqalar orqali;
- sxemaning harakatlanish samarasi orqali;

Shartli-chizma ko'rgazmalilikka nafaqat sxemalar, balki grafik, diagramma, aplikatsiyalar, sxemali rasmlar kiradi. Ular xodisa, voqea, jarayonlarning aloqa va muloqotlarini aniqlashga ishlatiladi, matn qismini obrazli tasavvurini shakllantiradi. Matniqiy ketma-ketlik va ko'p obyektlarni tasvir orqali solishtirish hosil bo'ladi. Sxemalar bir necha turlarga bo'linadi: statik va harakatli. Tushuncha, jarayon va hodisalarni tarkibiy qismlarini ko'rsatuvchi mantiqiy qismlar mantiqiy ketma-ketligini aniqlaydi. Boshqa tasvirlarni sxematik tasvir bilan taqqoslash real obraz yaratadi. Sxemani aniq tilga oid material to'ldirishi mumkin, lekin hajmini chegaralash kerak, chunki sxema ortiqcha yuklanadi, bu esa sxemaning qiymatini yo'qotadi. Gigiena normasiga keltiruvchi sxemalar yengillashadi, qachonki material zich o'rnatilsa va shartli belgilar ongli joylashsa. Ular fikr va diqqatni jamlaydi, mezonlarini anglatadi, lekin aniq xulosalar bermaydi, fikrlash faolligi talab qilnadi, mustaqil, abstrakt fikrlashga undaydi, quyidagi talablarga rioya qilish kerak: tushuntiruvchi so'zlar kamroq ishlatilishi yuqori, pastki va joy qoldirish ranglar-rangbarangligini yo'qotish; tarkibiy qismlar soni va aloqalar matn parchasi mazmuni va harakteriga mos bo'lishi kerak.

Bundan yigirma yil oldin elektron darsliklar haqida tasavvurga ham ega

emasdik. Bugun esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti bois elektron darsliklardan foydalanish imkoniyatiga egamiz. O‘z navbatida, u bilan bog‘liq muammolarni ham yechishga harakat qilyapmiz.

Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko‘rgazmali material sifatida foydalanish pedagogga katta yordam beradi. O‘quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o‘tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin.

Slaydlarga nisbatan o‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini yozadi va bu orqali ular axborotlar bilan ishlashning quyidagi malakalariga ega bo‘ladilar:

- grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki teskarisi;
- muhokama etilayotgan mavzu bo‘yicha xulosalar va savollarni shakllantirish
- o‘zining o‘quv-bilish faoliyatini rejalashtirish.

Bunday metodika o‘qituvchiga yangi axborotlarni ko‘paytirib borish, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi o‘zgarishi bilan ma'lum bir mavzuga mo‘ljallangan slaydlarni takomillashtirib borish imkoniyatini beradi.

2.3. Tabiiy geografiya kursini elektron darslikda yoritish.

Respublikada elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanishga mo'ljallangan axborot texnologiyalari vositalarini rivojlantirish, shuningdek, masofadan turib o'qitishni tashkil etish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Elektron adabiyotlar yaratishning ilmiy-uslubiy tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. 2006 yildan e'tiboran, elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanishning uchinchi bosqichi boshlanganiga qaramay ta'lim muassasalari uchun elektron darslikni yaratish va ularni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash bo'yicha ishlar ancha sust ketmoqda. Bu esa, elektron darslik yaratish uslubiyoti, uning tuzilishi, o'z ichiga oladigan komponentlariniig aniq bir tizimga solinmaganligi bilan bog'liq. Elektron o'quv adabiyotlarining uchinchi ya'ni o'quv jarayonida keng foydalanish bosqichiga o'tishda, o'quv adabiyotlarining yangi avlodini ishlab chiqish va ta'lim muassasalarini ta'minlashni jadallashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridandir. Bu borada fanlardan elektron darslikni yaratish muhim masala hisoblanadi. Shu o'rinda, darslik atamasiga ta'rif berib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Darslik - Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqloq g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr ekanligini ta'kidlaymiz.

Elektron darslik esa, kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib, quyidagi shakllarda ifodalanadi:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklida;
 - o'quv materiallari verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklida;
- multimedia (multimedia —turli xil aborot) qo'llanmalar, yani ma'lumot uch

o'lchamli grafik ko'rinishida, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklida;

- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o'quvchi (talaba, tinglovchi)ni «ekran olamida» stereonusxasi tasvirlangan haqiqiy olamga kirishi va undagi ob'ektlarga nisbatan qarakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda.

Yangi asr ta'limini rivojlanish tendentsiyasi - axborot texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga keng qo'llash va tarqatishdan iborat. Bu yo'nalishda asosiy vazifalaridan biri turli predmet sohasini o'z ichiga olgan bilimlar omborini yaratish bilan belgilanadi. Yangi axborot texnologiyalarining ta'lim tizimiga tatbiq etilishi an'anaviy o'qitish jarayonidan o'quvchining o'zi ta'lim jarayonining borishini aniqlaydigan yangi jarayonga o'tishini ta'minlaydi. Elektron darsliklardan foydalangan holda tashkil etilgan o'qitish texnologiyasi kelajakda ta'lim tizimida keskin o'zgarish qilishga qodir. Ko'pchilik iqtidorli o'quvchilar o'zlarining qobiliyati va qiziqishiga mos ravishda mustaqil bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ta'limning bunday tizimida maktab va oliy ta'lim o'qituvchilari bilimlarini o'quvchilarga yetkazishda anchagina qiyinchiliklarni yengishga to'g'ri keladi. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarining hammasida ham kompyuterli ta'lim yetarlicha yo'lga qo'yilmagan. Elektron darslikni yaratish borasida anchagina ishlar qilinayotgan bo'lsa-da, hali darsliklarga oddiy kutubxonaning kitoblariga ega bo'lishdek ochiq tizim mavjud emas. Ta'lim tizimining rivojlanishi bilan bunday kamchiliklar asta-sekin yo'qolib boradi. Elektron darsliklarni yaratish juda murakkab jarayondir. Ta'lim texnologiyasi qo'llaniladigan o'quv jarayoni markazida o'quvchi, texnologiya qo'llanish mazmunida o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatini rivojlantirish hamda o'quv faoliyati asosida o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorligi yotadi.

Elektron darslik abstrakt mavjudotlar uchun emas, balki shaxs bilan ishlashga mo'ljallangan. O'quvchi o'zining qobiliyati, fanga qiziqishi va uning tayyorgarlik darajasiga qarab ta'lim usulini tanlashi kerak. Elektron darslik o'quvchining bilim olishini vaqt bo'yicha chegaralamaydi. Shuning uchun ham o'quv materialini o'zlashtirish vaqti o'quvchining xohishiga ko'ra qisqarishi yoki uzayishi mumkin.

Elektron darslik o'quvchilarga axborotni o'qish, ma'ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga mo'ljallangan vazifalari bajarish, o'z bilimlarini tekshirish va, zarur hollarda, ularni to'ldirish, o'z-o'zini nazorat qilish kabi bilim shakllarini tavsiya etishi mumkin. Elektron darslik o'z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, testlarni olishi va bir vaqtda o'zida bilim berish va o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini aniqlash dasturiy ta'minotiga ega bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, u kursning asosiy axborotli qismini bayon etuvchi taqdimot qilishni tashkil etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar, o'quvchilarning bilimlarini oqilona baholash imkoniyatini beradigan testlar kabi uchta komponent bo'lishini talab etadi. Kompyuterga mo'ljallangan darslik:

- bir zumda teskari aloqani ta'minlashi;
- zarur axborotni tezlikda topishga yordam berishi;
- gipermatnli tushuntirishlarga ko'p marta murojaat qilishda vaqtni tejashi;
- ekranga matnni to'g'ridan-to'g'ri chiqaribgina qolmay, balki multimedia texnologiyasi orqali ovozli tahlil qilishi va modellashtirishi;
- aniq bir bo'lim bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish darajalariga mos ravishda bilimni baholay olish imkoniyatini yaratish;
- zarur o'quv axborotlarini yangilash imkoniyatining mavjudligi bilan an'anaviy darsliklardan tubdan farq qiladi.

Elektron darslik, shuningdek, o'quv materiallarini ilmiy va ko'rgazmali qilib tasvirlash; tahliliy-sintetik imkoniyati; axborotni to'la, tizimli va mantiqiy ketma-ketlikda tasvirlash, o'quv materialini bir tizimda berish va faollashtirish kabi muammoli; o'quv materialini o'zlashtirilishining mustahkamligi; ta'limni differentsiallashgan va individuallashtirilganligi; moslanuvchanligi va emotsional ta'sirchanligi kabi psixologik- pedagogik; to'la didaktik ta'lim davriyliligi, ta'limning interfaolligi, teskari aloqa, o'z-o'zini boshqarish vazifalarini amalga oshirish kabi boshqarish, shuningdek, auditoriya va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil faoliyat jarayonida darslik bilan ishlash imkoniyati; ishlashda qulaylik; katta hajmdagi axborotni saqlashning osonligi va o'quv adabiyoti bilan ishlash

uchun zarur maxsus texnik jixozlarning (masalan, kompyuterlarning) mavjudligi kabi tashkiliy- texnologik imkoniyatlar bo'lishini taqozo etadi. Nashr etilgan o'quv materiallarining yuqorida sanalgan didaktik imkoniyatlari an'anaviy darslik, dasturlashtirilgan darslik, elektron darslik va o'quv qo'llanmalar tajribada qiuoslab ko'ilganda, eng ko'zga ko'ringan belgilarni oxirgi tur (multimediali) o'quv qo'llanmalarida mavjud ekanligi tasdiqlangan. Xulosa qilib aytganda, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan elektron darsliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lmog'i lozim:

- predmetdagi axborotlarning yaxshi tuzilishga egaligi;
- o'quv predmetining tuzilishidagi elementlariga gipermatnli, namoyishli, audio- va video izohlarga asosiy mavzularning mos kelishi;
- matn va namoyish qilish bilan bir qatorda, darslikning asosiy bo'limlari bo'yicha o'qituvchilarning o'quv materiallarining video yoki audio yozuvli bayonlarini berilishi;
- rasm, model va sxemalarni tezlikda tushuntirish tizimiga ega bo'lishi va bunda gipergrafikadan foydalanilishi;
- ko'p oynalik interfeysning qo'llanilishi;
- matn qismlarida zarur manbalarga murojaat etishga mo'ljallangan gipermatn tizimining mavjudligi;
- matn bilan tushuntirish kiyin bo'lgan predmetning boblari qo'shimcha videoaxborot va animatsiyali kliplar bilan ta'minlanishi;
- audioaxborotlar musiqa bilan olib borilishi;
- o'quvchilar sinf va sinfdan tashqarida bajarishi kerak bo'lgan vazifa va mashqlarning, shuningdek, ularning javoblarining berilishi;
- asosiy tushuncha va modullarning izohli lug'atining mavjudligi bilan an'anaviy darsliklardan farq qilishi kerak.
- elektron darslikning har bir bo'limidan so'ng o'quv materialini mustahkamlash uchun savollar berilishi maqsadga muvofiq.

Ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida elektron darsliklardan foydalanish orqali o'quv-tarbiya jarayoni jadallashadi. O'quv-tarbiya jarayonini

jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga:

- bir maqsadga yo'naltirilganlikni ko'tarish;
- o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- o'quv mazmunining axborot hajmini kengaytirish;
- o'quvchilarning o'quv-bilish harakatini faollashtirish;
- o'quvchilarning o'quv-amaliy darajasini tezlashtirishlarni kiritish mumkin.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida elektron darsliklarni yaratish jarayonida quyidagi jihatlarga e'tiborni qaratish lozim:

- o'quv axborotlarini notekis va ko'p darajali tarzda taqdim etish;
- o'quvchining mustaqil va yakka tartibda bilim olishiga yo'naltirilganligi;
- o'quvchining ruhiy faoliyatini hisobga olish: kuzatish, fikrlash va amaliy faoliyatlarini rivojlanish xususiyatlarini integratsiyalashdir.

Elektron darslik - kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi bo'lib, undan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari o'quvchiga interfaol usullar bilan etkazilib, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va videoanimatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinni foydalaniladi.

Elektron darsliklar quyidagi qismlardan iborat bo'lishi zarur:

1. O'rgatuvchi qism - gipermatnga asoslangan va statik, dinamik rasmlardan iborat.
2. Mashq qildiruvchi - xatolarni ko'rsatib beruvchi va to'g'ri xulosaga olib keluvchi qism.
3. Nazorat qiluvchi - testlar orqali nazorat qiluvchi tizim asosida shakllanadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, elektron darsliklarning imkoniyatlari an'anaviy darsliklarga nisbatan ancha keng. Shuningdek, elektron darslik quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- ta'limni, o'quv mashg'ulotlarini yuqori sifatli darajada olib borilishi ta'minlanadi;

- mustaqil ta'lim olish va egallangan bilimlarni mustaqil baholash imkoniyati yaratiladi;
- ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning hamohangligi ta'minlanadi;
- axborot-ta'lim ashyolarini rivojlantirish xususiyatining hamohangligi ta'minlanadi;
- matn va boshqa axborot materiallarini maxsus navigatsiya (gipermatn) va illyustratsiya (multimedia vositalari, rasmlar, diagrammalar va jadvallar) yo'li bilan taqdim etiladi.

Elektron darsliklar, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda eng muhim tushuncha va qonuniyatlarni tushunish hamda yodda saqlashni maksimal darajada yengillashtiradi.

Elektron darsliklarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. ***Foydalanish maqsadlariga ko'ra:*** jamoa bo'lib va yakkama-yakka foydalaniladigan elektron darsliklar.

Jamoa bo'lib foydalaniladigan elektron darsliklar kompyuterning katta tizim ashyolarini talab qilmaydigan bo'lishi kerak, chunki ular server kompyuterga joylashtiriladi, ulardan kompyuter tarmoqlari orqali ifoydalanish mumkin.

Yakkama-yakka foydalaniladigan elektron darsliklar o'quv materiallarini o'qituvchining ishtirokisiz o'rganishga mo'ljallangan. Elektron darsliklarning bu ikki turidan auditoriya mashg'ulotlarida ham foydalanish mumkin.

2. ***O'quv materiallarini taqdim etish bo'yicha:*** tartibli va ixtiyoriy. ***Tartibli elektron darsliklar*** ma'lum bir bo'limga oid bo'lgan o'quv materiallarini o'zlashtirmasdan keyingi bo'limga o'tishga imkoniyat bermaydi.

O'quv materiallarini va axborotlarni yangilash bo'yicha: uzluksiz va davriy yangilanuvchi. ***Uzluksiz ravishda yangilanadigan*** elektron darsliklar odatda, elektron o'quv bazalariga (portallar, Web-saytlar va boshqalar) va elektron kutubxonalarga joylashtiriladi. ***Davriy yangilanadigan*** elektron darsliklar asosan elektron axborot tashuvchi (disketa, CD-disk va boshqa)lar bilan taqdim etiladi.

Elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi bo'lib, undan mustaqil

ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari o'quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinli foydalaniladi.

Elektron darsliklarni loyihalashtirish, ishlab chiqish va o'quv jarayonida keng foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda, chunki ulardan ommaviy ravishda ta'lim sohasida qo'llanila boshlandi. Oxirgi vaqtlarda elektron o'quv nashrlarning turli xillari yaratilib, ular o'z tarkibiga oddiy gipermatn darslikdan tortib masofaviy o'qitishning kompleks tizimlarigacha qamrab olmoqda.

Elektron darsliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- matnning elektron versiyasi;
- kitobning gipermatnli elektron versiyasi;
- grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;
- animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;
- animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasm, gipermatnli va test tizimlari mavjud darsliklar.

Ushbu sohaning yangiligi va o'quv-uslubiy ta'minotning yo'qligi ishlab chiqilayotgan elektron darsliklarning sifat darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, darsliklarni yaratishning yagona standartlari mavjud emasligi va dasturiy vositalarining turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilishi elektron darsliklarni o'quv jarayonida samarali qo'llashga to'sqinlik qilayapti deyish mumkin.

Shuning uchun ham yaratilayotgan elektron darsliklarni baholash mezonlarini belgilab olish lozim. Avvalambor, elektron darsliklar o'tilayotgan darslar sifatini yuksaltirishiga qanday ta'sir ko'rsatishini bilish kerak.

Elektron darsliklarning an'anaviy usullarga nisbatan quyidagi afzalliklarini keltirish mumkin:

1. O'quv axborotlarining taqdim etilish shakli.
2. Kerakli axborotlarni qidirish imkoniyati.

3. Olingan bilimlar darajasini nazorat qilish usullarining mavjudligi.

4. O'qituvchi bilan teskari aloqaning mavjudligi.

Shulardan kelib chiqib, elektron darsliklarni yaratishning quyidagi tamoyillarini keltirish mumkin:

- multimedia ma'lumotlari (matn, grafik, audio, video, animatsiya) asosida axborotlarni taqdim etish;
- qidirish va yo'llash imkoniyatlarini kiritish;
- olingan bilimlar darajasini nazorat qilishning ob'yektiv tizimini kiritish;
- tarmoq texnologiyalari asosida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro interaktiv va teskari aloqasining yo'lga qo'yilishi.

Elektron darsliklardan o'quv jarayonida keng foydalanishning asosiy muammosi — bu kompyuter ekranidan katta hajmdagi axborotlarni o'qishdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida taqdim etish mumkin. Bu ikki usul bitta o'quv materialini turli shaklda taqdim etishi bilan farqlanadi, xolos

Elektron darslikning matn usulida material, gipermatn ko'rinishida taqdim etilib, unda grafik, chizma, diagramma, fotografiya, animatsiya va video qo'llaniladi.

Elektron darslik materialini o'qituvchiga diktor ovozi bilan yetkazilib, slayd-shou ko'rinishdagi material bilan birga beriladi. Audio va video axborotlarning o'zaro birgalikda qo'llanishi o'qitish samaradorligini keskin yuksaltiradi.

Axborot mahsulotlarining respublikamiz hayotida tutgan o'rni va roli ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bozori industriyasini tarkib toptirish jamiyatimizda chuqur ijtimoiy o'zgarishlarga olib kelib, uni «industrialdan axborotlashgan jamiyatga» aylantirishiga ishonchimiz komil.

FAN: O'RTA OSIYO TABIIY GEOGRAFIYASI.**sinf: 7****Mavzuning texnologik xaritasi va o'tkazilish ishlanmasi**

Mavzu:	Mirzacho'l
Maqsad va vazifalar	O'quvchilarda yangi atama va tushunchlarni shakllantirish; Mirzacho'lning tabiiy-geografik o'rni xususiyatlari haqida tasavvurlar hosil qilish; o'quvchilarda geografik o'rin ko'nikmasini shakllantirishda davom etish; o'lkaning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilim berish. O'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifalarni bajarishda ma'suliyat sezish ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish.
O'quv materiali mazmuni	O'rganilgan mavzilardan asosiy tushunchalarni ajrata bilish, ularni amaliyotda qo'llay bilishga o'rgatish, mustaqil fikrlash doirasini kengaytirish. O'quvchilarning savol-javob, xarita bilan ishlash (amaliy mashg'ulot) orqali yangi mavzuni qay darajada o'zlashtirilganligi nazorat qilinadi.
O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	Shakl: interfaol mashg'ulot: suhbat-ma'ruza, yakka tartibda, kichik guruh, jamoa bo'lib ishlash. Metod: "Aqliy hujum", "Amaliy mashg'ulot" "Kichik guruhlar bilan ishlash", savol- javob, test. Vosita: Darslik, 7-sinf o'quv atlasini va yozuvsiz xaritalar, O'zbekistonning tabiiy kartasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatma savollar. Nazorat: kuzatish, nazorat savollari, nazorat testlari. Baholash: rag'batlantirish, 5 ballik tizim asosida.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: Mavzu belgilangan vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. O'quvchilarning darsda faolligi oshadi. Ularda fanga nisbatan qiziqish o'yg'onadi. Amaliy

	<p>mashgʻulotlarni mustaqil bajaradilar, barcha oʻquvchilar yakka tartibda baholanadi. boshqalarga yetkazish, savol va javob berishga oʻrgatiladi.</p> <p>Oʻquvchi: Mavzu yuzasidan yangi bilimga ega boʻladilar. Guruhlar bilan ishlashni oʻrganadilar, eslab qolish, ayta olish, koʻrsata olish koʻnikma va malakalarga ega boʻladilar</p>
<i>Kelgusi rejalar</i>	<p><i>Oʻqituvchi:</i> Yangi pedagogik texnologilarni oʻzlashtiradi va darsda tatbiq etib, takomillashtirishga erishadi. Oʻz ustida ishlaydi. Mavzuni hayotiy voqyalar bilan bogʻlaydi va solishtiradi.</p> <p><i>Oʻquvchi:</i> Mavzu yuzasidan berilgan topshiriq ustida mustaqil ishashni oʻrganadi. Oʻz fikrini ravon bayon eta oladi. Yangi mavzuga oid qoʻshimcha materiallar topishga harakat qiladi.</p>

Mashgʻulotning borishi

Darsning tashkil etish shakllari:

- a) salomlashish
- b) davomat aniqlash.
- c) ob-havo soʻrash
- d) uyga berilgan topshiriqlarni tekshirib chiqish

Dars uslubi. Savol-javob, guruhlariga boʻlish, suhbat.

Dars rejasi:

1. Oʻqituvchining kirish soʻzi (1 daqiqa).
2. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash (5 daqiqa).
2. Guruhlarga boʻlinish (2 daqiqa).
3. Yangi mavzu bayoni. (12 daqiqa).
4. Yangi mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar (8 daqiqa).
5. Mavzuni mustahkamlash (2 daqiqa).
6. Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish va baholash (2 daqiqa).

Oltin qoidalar.

1. Faollik.
2. Vaqtga rioya qilish.
3. Fikrni takrorlamaslik.
4. O'zaro hurmat.
5. To'g'ri javob uchun rag'bat.
6. O'ng qo'l qoidasi.
7. "Bir yoqadan bosh chiqarish".
8. Intizom.

Darsning borishi:

1. Darsning tashkiliy qismi; salomlashish, o'quvchilar davomatini kuzatish, psixologik iqlim yaratish..

2. O'quvchilarga qiziqarli malumotlar berish.

3. Yangi mavzu bayoni.

Mirzacho'l Sirdaryo bilan Arnasoy ko'li oralig'ida joylashgan, umumiy maydoni taxminan 1 mln ga, U shimolda Qozog'iston bilan, janubi-sharqda Tojikiston bilan, g'arbda Qizilqum o'lkasi bilan chegaradosh. Sirdaryoning chap sohilida joylashgan. Janubda Turkiston, Morguzar, Nurota tizmalari, sharqda Sirdaryo o'zani bilan chegaralanadi.


Mirzacho'lning tekislikdan iboratligi tufayli va Janubda Turkiston va Nurota tizma tog'larining mavjudligi natijasida iqlimiy sharoitlar o'ziga xos. Qishda sovuq havo massalari hech qanday to'siqsiz tekislikka kirib keladi, yozda esa termik depressiya hukmronidir. Iyulning o'rtacha harorati shimolda 26—27°, janubda 30—28,5°. Yanvarning o'rtacha harorati shimolda—3°, —4°, janubda esa 0,8°, —1,1°. Atmosfera yog'inlari o'lkada o'rtacha 252—363 mm ni tashkil qiladi, uning shimoli-g'arbida 200 mm dan kam, markaziy qismida 200—300 m, janubda — tog' etaklarida — 300 mm dan ziyod yog'in tushadi. Yog'in ko'proq bahorda (40%) va qishda (25—35%) yog'adi.

Mirzacho'ning shimoli-g'arbida shimoliy shamollar hukmron, janubi-sharqda janubi-sharqiy shamollar ustuvor. Shimoli-sharqiy qismida qishda janubi-sharqiy va janubiy shamollar (o'rtacha tezligi sekundiga 1,8—2,9 m), yozda esa shimoliy va shimoli-g'arbiy shamollar esadi. Mirzacho'ning janubi uchun janubi-sharqiy va sharqiy yo'nalishlardagi shamollar, ayniqsa, kuchli esadi. Ushbu shamollar, odatda «Ursatevskiy» nomi bilan mashhur. Kuz va qishda mazkur shamol Farg'ona vodiysi bo'ynidan Mirzacho'l tekisligiga katta kuch bilan chiqib kelishi tufayli shamol tezligi goho sekundiga 46 m gacha yetadi. Ko'proq 20 m tezlikda harakat qiladi.

Yer osti suvlarining to'yinishi Turkiston va Nurota tog' tizmalarining yer usti va yer osti suvlari, Sirdaryo va uning o'zani ostidan, Chotqol va Qurama tizmalaridan yunalgan yer osti oqimlari, atmosfera yog'inlari, sug'orish kanallari va nihoyat sug'oriladigan dalalardan zaminga singgan suvlar hisobiga oloyuz beradi. Chordara suv ombori va Arnasoy, Haydarko'ning suv sathlari qanchalik baland bo'lsa, grunt suvlarining sathi ham shuncha yer yuzasiga yaqin joylashadi. Suv sarfida, asosan bug'lanish va kollektorlar oqimi katta o'rin tutadi.

Mirzacho'lda muntazam oquvchi daryo tizimlari mavjud emas. Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'irlaridan boshlanuvchi bir necha soylar va daryolar mavjud. Eng yirik daryolardan biri Sangzor. Uning umumiy uzunligi 123 km, havzasining maydoni 2580 kv. km. Daryo Turkiston tizmasidagi qor-muzliklardan to'yinadi, yozda to'lib oqadi, maksimal o'rtacha oylik suv sarfi sekundiga 12,2 kub. m, o'rtacha oylik sarfi esa sekundiga 6,1 kub. m. Daryo suvlari Jizzax voxasini sug'orishda foydalaniladi. Zominsuv xam Turkiston tizmasining eng yurqori yonbag'irlaridagi qorlik va muzliklardan boshlanadi, Ko'lsuv, Qizilmozor va Qashqasuv soylarining o'zaro qo'shilishidan vujudga keladi. Suv yig'ish maydoni 555 kv. km, o'rtacha ko'p yillik suv sarfi sekundiga 2 kub. m, eng ko'pi 4,8, eng (kami 1 kub. m dan iborat. Eng ko'p oqim iyun oyiga to'g'ri keladi. Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'irlaridan boshlanadigan soylar Rovotsoy, Sayxonsoy, Turkmansoy, Xo'jamushkentsoy, Achisoy, Qo'shchisoy, Jalairsoy, Xovataksoy, Bosmandisoy va bonshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Ularning jami suv sarfi sekundiga 20,74 kub. m ni tashkil etadi. Sirdaryoning chap sohilida o'nlarcha turli kattalikdagi qayir ko'llari va botiqlar mavjud, ular daryoning qolgan o'zanlarida joylashgan, lekin kollektor tarmoqlari qurilishi



natijasida ularning asosiy qismi qurigan va sholizorlarga aylantirilgan.


Mirzacho'lda bo'z tuproqlarning ikki kichik turi, ya'ni tipik va och bo'z tuproqlar tarqalgan. Mazkur turdagi tuproqlar o'rtasidagi chegara taxminan 450 m mutlaq balandlikka mos keladi. Tipik bo'z tuproqlar yoyilmalarining boshlanish qismi,

tog'oldi shelflarining yuqori qismlarida keng tarqalgan. Ushbu tuproqlar sho'rlanmagan, lekin qiyalik kattaroq bo'lgan joylarda eroziyaga uchragan. Yuqori qismi (0—3 sm) da 3—4%, quyi qismi (0—10 sm) da 1,5—2,5% gumus mavjud.

Och bo'z tuproqlar yoyilmalarining chekka qismlarida, Lomakin platosining shimol tomonida, tog'oldi shleyflarida uchraydi. Ushbu tuproqlarning yuqori gorizontlarida karbonatlarning miqdori 6—7%, quyi tomon esa 10—11% gacha ortadi. Tuproqning quyi qatlami (35—45 sm) da gips tarkibi 1—2% ni tashkil etadi.

Mirzacho'lning asosiy qismi sug'orma bo'z-o'tloq tuproqlari bilan band bo'lib, namlikning bug'lanishi natijasida qatlamlarda turli miqdorda tuzlar to'plangan. Sug'oriladigan tuproqlarda tuz kuproq eng yuqori qatlamda yig'iladi (1—2%, ba'zan undan ko'proq;), quyi tomon kamayib boradi. Sirdaryoning quyi terrasalarida o'tloq-tuproqlar tarqalgan va ular ham turli darajada sho'rlangan. Mirzacho'lda juda zich holda kollektor-zovur tarmoqlari va tik zovurlar mavjudligi tufayli tuproklarning haddan tashqari sho'rlanishining oldi olingan. O'zansimon pastqamliklarda (Yettisoy, Sardoba) sho'rxoklar hukmron.

Mirzacho'l tekisligi yer osti suvlarining harakati va sho'rxoklarning paydo bo'lishi



Mirzacho'l yerlarining asosiy qismi to'liq o'zlashtirilgan, faqat Yettisoy pasgkamligi va Janubiy Mirzacho'l kanalining janubiy qismidagi mintaqa o'zlashtirilmagan, chunki yerlar yoyilmalarning chekka qismida joylashganligi tufayli anchagina jipslashgan va tuz miqdori juda bisyor. Irrigatsiya va melioratsiyaning eng so'nggi yutuqlari Mirzacho'l da sinovdan o'tkazilishi sababli o'lkada sug'orish madaniyati eng yuqori, sug'orish me'yori gektariga 7,5



ming kub. m, grunt suvlari sathi tik zovurlar yordamida deyarli bir maromda ushlab turiladi, binobarin sho'rlanish jarayoni ancha boshqariladi, lekin shunga qaramasdan meliorativ ahvolni juda yuqori darajada deb bo'lmaydi

O'simliklari. Mirzacho'l tabiiy

o'lkasida cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalariga xos o'simliklar uchraydi.

Cho'l o'simliklari, asosan, efemerlar — *shoto'zak, qorabosh, burgan, lolaqizg'aldoqlardan* iborat bo'lib, ular jazirama issiq boshlanishi bilan qovjiray boshlaydi. So'ngra issiq va qurg'oqchilikka chidamli *shuvoq, chalov, sho'ra, yulg'un* va *yantoqlar* yozda ham o'saveradi. Sho'rxok joylarda *tatir, burgan, sho'rajriq, yulg'un, tuyaqorin* kabi o'simliklar o'sadi.

Mirzacho'lning tog' etaklari va undan yuqorida *na'matak, irg'av, zirk, pista, bodom, olma, olcha* kabi buta va mevali daraxtlar o'sadi. Nurota tog'larida yong'oqlar mavjud. Turkiston tog' tizmasining 1500—2500 m balandlik qismida archazorlar uchraydi. 2800—3000 metrdan balandda *qo'ng'irbosh, rang, yovvoyi arpa* kabi o'tlar o'suvchi yaylov mintaqasi boshlanadi. Sirdaryo bo'yidagi to'qaylarda *yulg'un, tol, turong'il, jiyda* kabi o'simliklar o'sadi.



Hayvonot dunyosi. O'lkaning katta qismida cho'l hayvonlari yashaydi. ulardan eng muhimlari

kemiruvchilardan *qo'shoyoq, yumronqoziq, quyon*, sudralib yuruvchilardan *kaltakesak* va *ilon*, yirtqichlardan hasharotlardan *chayon, falanga*, sutemizuvchilardan *tulki, bo'ri, jayron* uchraydi. Qushlardan *to'rg'ay, so'fito'rg'ay, boyo'g'li* yashaydi. Sirdaryo to'qaylarida *to'qay mushugi, to'ng'iz, chiyabo'ri*.



qushlardan *qirg'ovul, o'rdak va g'ozlar*. Sirdaryoda *ondatralar* yashaydi.

Mirzacho'l janubidagi tog'larda yirik sutemizuvchi hayvonlardan *kiyik, tog' takasi, alqor*. yirtqichlardan *bo'ri va tulki*. shuningdek. *silovsin*. qushlardan *bedana, bulbul, kaklik, kalxat, lochin, qirg'iy, burgut* yashaydi.



Daryo va suv havzalarida zog'orabaliq, olabug'a, laqqabaliq, cho'rtanbaliq, qorabaliqlar uchraydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollar.

1. Mirzacho'l o'lkasining qaysi qismida Turkiston, Morguzar, Nurota tog' tizmalari joylashgan?

- A. Shimol
- B. G'arb
- S. Janub**
- D. Sharq

2. Mirzacho'l o'lkasining janubiy qismidagi tog'lar qaysi erada ko'tarilgan?

- A. Mezazoy
- B. Kaynazoy
- S. Paleozoy**
- D. Arxiy

3. Mirzacho'l o'lkasida yanvar oyining o'rtacha harorati qancha?

- A. -1-4 C
- B. -5-8 C
- S. -1-3 C**
- D. 0 -+4 C

4. Mirzacho'lning qaysi qismida yog'in miqdori 200-350 mm atrofida bo'ladi?

A. Tog`

B. Tekislik

S. Janubida

D. Adir

5. Mirzacho`lning tekislik qismida yog`inga nisbatan bug`lanish necha baravar ko`p?

A. 2-2,5

B. 3,5 – 4

S. 3-3,5

D. 4- 4,5

5. Mirzacho`lning shimoli-g`arbida joylashgan ko`llar?

A. Tuzkon, Arasoy

B. Sho`rko`l, Dengizko`l

S. Arnasoy, Shovulko`l

D. Sho`rko`l, Tuzko`l

6. Mirzacho`l qaysi qismida Qizilqum bilan chegaradosh?

A. Shimolida

B. Janubida

S. G`arbida

D. Sharqida

7. Hayotboshi cho`qqisining balandligi qancha?

A. 2169 m

B. 2011 m

S. 2100 m

D. 3000 m

8. Tabiiy geogarfik o`lkaning tekislik qismining o`rtacha qancha?

A. 200-350m

B. 250-300m

S. 400-450m

D. 150-200m

9. *Amir Temur darvozasining kengligi qancha?*

A. 100-120 m

B. 90-100 m

S. 150 m

D. 120-130m

10. O'lkaning eng yirik va asosiy suv manbai qaysi?

A. Sirdaryo

B. Amudaryo

S. Zarafshon

D. Sangzor

T O P I S H M O Q L A R

- Zar gilam zar-zar gilam
Ko'taray desam og'ir gilam *(Tuproq)*

- Do'ng bo'libdi ko'chma qum
Shamolda tinmas bir zum.
To'p-to'p tizma ham yakka,
Qum ustida yo'q pakka *(Barxan)*

- Topchi, senga topishmoq,
Unga darkor cho'l, qumoq.
Do'stlari juzg'un, iloq,
Sanoqsiz, juftmi, yo toq.
Qani ayt nomin... *(Shuvoq)*

- Cho'lda o'sadi, suvda cho'kadi
Shamol to'sadi, shoxin to'kadi
Toshdek yog'ochin, arra kesolmas

Deganlarim chin, zaxda o'solmas. (*Saksovul*)

- O'zi tanho-yagonadir,
Tabiatga chin onadir. (*Quyosh*)

Tilla barkash yarqiraydi,
Baxt ulashib charaqlaydi, (*Quyosh*)

So'z o'yini: harflarni joy- joyiga qo'ying.

1. Jayron - a; r; y; n; j; o.
2. Qamish - i; sh; m; a; q.
3. Bo`rsiq - s; o`; r; b; q; i.
4. Jiyda - d; y; a; i; j.
5. Kaltakesak -k; t; a;s; a; k; a; l; k; e.

XULOSA

Axborot asrida insoniyat tarixida sanoat va fan olamida olamshumul yutuqlar qo'lga kiritildi. Dunyoda axborot eng qimmat narsaga aylandi. Kompyuter ixtiro qilinishi insonlar bajaradigan yumushlarni yengillashishiga olib keldi. Fan, ta'lim sohalarida o'qitish o'rganishning zamonaviy vositalari joriy qilindi. Ushbu vositalarni biri va deyarli eng ko'p qo'llaniladigani bu elektron darsliklardir. Hozirda deyarli barcha sohaga barcha sohaning elektron qo'llanmalari mavjud. Lekin hammasini ham foydali deya olmaymiz. Ma'lumot undan insonlar foydalangandagina foydali bo'lishi mumkin. Shunday ekan elektron darsliklar tayyorlashda ham ushbu jihatga e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim uslublaridan biri bu yangi pedagogik texnologiya bo'lib, bu pedagogik texnologiyaning ta'siri jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faolligi oshadi, o'quvchida mustaqil bilim olish ehtiyoji shakllanadi. Yangi pedagogik texnologiya o'quv jarayonida, fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini talabalarga yetkazish maqsadida videotasmalarga tushirib keltirilgan ishlab chiqarish korxonalarida jarayonlariga oid, lavhalardan kompyuter va axborotlar texnologiyalari asosida tayyorlangan ma'ruza va amaliyot darslarining elektron versiyalaridan, tarqatma materiallardan va boshqa manbalardan foydalanishi nazarda tutadi.

Ta'lim-tarbiyaning mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, yangi texnologiyalarga aylanib bormoqda, bu o'rinda elektron darsliklarning ahamiyati va roli benihoya kattadir.

Men ushbu bitiruv malakaviy ishimni yoritishda pedagogik amaliyot davrida orttirgan tajriba va bilimlarimga tayangan holda „Mirzacho'l o'lkasi tabiiy geografik tavsifi“ mavzusida ochiq dars o'tkazdim. Yuqorida mazkur ochiq dars ishlanmasi va texnologik kartasini ketirib o'tdim.

Maktablarda o`qitishni tashkil qilish va yangicha darslar o`tish to`grisidagi o`z fikrlarimni bayon etdim. Bu menga kelajakda maktabda har bir mavzu yuzasidan turli izlanishlar olib borishimga, bilimimni yanada chuqurlashtirish uchun harakat qilishimga turtki bo`ldi.

Men malakaviy bitiruv ishimni yozishimda menga yaqindan ko`mak bergan kafedra professor – o`qituvchilariga, xususan kafedramiz mudiri Bo`ranov Y.R. ga o`z minnatdorchiligimni bildiraman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
4. Akramov Z. M., Musayev R. G. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.- T.: 9- sinf uchun darslik. Mehnat 2001.
5. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. - T.: O'qituvchi, 1994.
6. Ata-Mirzaev O., Tuxliyev N., Uzbekistan: priroda, naseleniye, ekonomika. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2009.
7. Ahmedov E., Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma'lumot-noma. – T.: O'zbekiston, 2006.
8. Nabiyeu E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. – T.: Universitet, 2000.
9. Soliyev A.S., Ahmedov E., Maxamadaliyev R.Y. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2003.
10. Soliyev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). – T.: Fan va texnologiya, 2009.
11. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – T.: «MUMTOZ SO'Z», 2010.
12. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot.- T.: Kamalak, 2013.
13. To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
14. Qurbonniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. – Urganch, 2001.
15. Qurbonov Sh. B. Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi.–T.: “MUMTOZ SO'Z”, 2013

16. Qo'chqorov A. Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi. - T.: 2000. 22-29 betlar.
17. O'zbekiston Respublikasi " ensiklopediyasi. Toshkent 1996 y.
18. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari. – T.: O'zbekiston, 2011.

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti

“Geografiya o`qitish metodikasi” ta`lim yo`nalishi

4-kurs talabasi Saydullayeva Zilolaning Umumta`lim maktablarining 7-

sinfida “Mirzacho`l tabiiy geografik rayoni” mavzusini o`qitish metodikasi

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

XULOSASI

Ta`lim sohasida yuz berayotgan o`zgarishlar bugungi kunda ta`lim tizimi oldida turgan ta`lim-tarbiya samaradorligini oshirish, jahon ta`lim standartlari darajasida bilim berish orqali har tomonlama yetuk ijodkor manaviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadryatlar, milliy istiqlol g`oyasi ruhida tarbiyalangan, o`z mustaqil fikriga ega bo`lgan barkamol shaxsni kamolga yetkazish kabi vazifalarni hal etishda ta`lim muassasalarining pedagogik jamoasi xususan, har bir fan o`qituvchisi o`z pedagogik faoliyatini tubdan o`zgartirishi lozim.

Mavzuni o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan, yangi axborotlarni to`plash, internet tizimi, gazeta-jurnallardan foydalangan holda ularni tahlil qilishga harakat qilingan. Keyingi yillardagi tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, ilmiy texnika taraqqiyoti va ijtimoiy sohadagi yutuqlar geografiya fanining maqsadi va vazifalariga hamda mazmuniga o`z ta`sirini ko`rsatmoqda. Bu tushuncha mavzusini o`rganishning deyarli barcha mavzularida mamlakatlar, shaharlar, rayonlar, o`lkalar tabiatini hamda xo`jaligini o`rganishda xo`jalik tarmoqlari o`rtasidagi aloqalarni bilishda katta ahamiyat kasb etadi.

“Mirzacho`l tabiiy geografik rayoni” mavzusini o`rganishda eng asosiy obyekt tabiiy geografik xususiyatlari, aholisi va xo`jaligi yetakchi o`rin egallaydi. Bundan tashqari o`lkalarning kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari, tabiiy sharoiti materiallari bir-biri bilan chambarchas bog`liqdir. Bu materiallar darslikdan materiallarni to`ldirishda ayrim hollarda esa illyustratsiya vazifasini o`taydi.

Mavzuning birinchi bobida Mirzacho`l tabiiy-geografik rayonining umumiy ta`rifi berilgan

Ikkinchi bobda esa, Umumta`lim maktablarining 7-sinflarida “M i r z a c h o ` l t a b i i y - geografik rayoni” mavzusini o`qitishning maqsad va vazifalari, “Dunyo qishloq xo`jaligi tarmoqlari geografiyasi” mavzusini o`qitishda noan'anaviy dars usullari yoritilib berilgan. Mazkur ishni himoyaga taysiya etaman.

Ilmiy rahbar:

kat. o`qituvchi Buranov Yo. R.

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti

“Geografiya o`qitish metodikasi” ta`lim yo`nalishi

4-kurs talabasi Saydullayeva Zilolaning Umumta`lim maktablarining 7-

sinfida “Mirzacho`l tabiiy geografik rayoni” mavzusini o`qitish metodikasi

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Ta`lim sohasida yuz berayotgan o`zgarishlar bugungi kunda ta`lim tizimi oldida turgan ta`lim-tarbiya samaradorligini oshirish, jahon ta`lim standartlari darajasida bilim berish orqali har tomonlama yetuk ijodkor manaviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadryatlar, milliy istiqlol g`oyasi ruhida tarbiyalangan, o`z mustaqil fikriga ega bo`lgan barkamol shaxsni kamolga yetkazish kabi vazifalarni hal etishda ta`lim muassasalarining pedagogik jamoasi xususan, har bir fan o`qituvchisi o`z pedagogik faoliyatini tubdan o`zgartirishi lozim. Geografiya darslarida geografik o'yinlardan foydalanish bugungi kun geografiyasining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi geografiya darslarida geografik o'yinlardan foydalanishning mazmun va mohiyatini tahlil qilingan va sinfdan tashqari ishlarda geografik o'yinlarga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

“Mirzacho`l tabiiy geografik rayoni” mavzusini o`rganishda eng asosiy obyekt tabiiy geografik xususiyatlari, aholisi va xo`jaligi yetakchi o`rin egallaydi. Bundan tashqari o`lkalarning kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari, tabiiy sharoiti materiallari bir-biri bilan chambarchas bog`liqdir. Bu materiallar darslikdan materiallarni to`ldirishda ayrim hollarda esa illyustratsiya vazifasini o`taydi.

“Geografiya o`qitish metodikasi” ta`lim yo`nalishi 4-kurs talabasi Saydullayeva Zilolaning Umumta`lim maktablarining 7-sinfida “Mirzacho`l tabiiy geografik rayoni” mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishini Davlat atestatsiya komissiyasi hay`ati oldida himoya qilishga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

kat.o`qit. Sh.Sh. Norov

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti

“Geografiya o`qitish metodikasi” ta`lim yo`nalishi

4-kurs talabasi Saydullayeva Zilolaning Umumta`lim maktablarining 7-

sinfida “Mirzacho`l tabiiy geografik rayoni” mavzusini o`qitish metodikasi

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimidagi o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablari oldiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. Bu vazifalar yoshlarni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrli, milliy merosimizni qadrlaydigan, ilmi ijodkor, nozik didli qilib tarbiyalashni o'qituvchilardan tinmay ijodiy izlanishlarni, fidoiylilik ko'rsatishni talab etmoqda. Ushbu buyuk vazifalarni amalga oshirish yo'lida barcha fanlar qatori geografiyaning ham o'rni kattadir. Chunki, geografiya yer yuzi tabiati, aholisi va uning xo'jalik faoliyati haqidagi fandir. Bugungi kunga kelib, geografiyani takomillashtirishga yanada katta e'tibor bilan qaralmoqda.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati ta'lim mazmunini va shaklini takomillashtirishga qaratilgan. Fan-texnika taraqqiyoti jamiyatimizning demokratlashuvi axborot miqyosining oshib borishi kabi omillar bolalarning shaxsiy xususiyatlariga jumladan, idrok eta olish, tasavvur va tafakkurlash aqliy qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi. Bolalarning olamni bilishga bo'lgan ehtiyoji avvalgi yillarga nisbatan keskin oshganligi hech kimga sir emas.

Umumiy holda aytadigan bo'lsak, umumta'lim maktablarining 7-sinfida o'tiladigan “Mirzacho`l tabiiy geografik rayoni” mavzusini o`rganishda darsliklarda berilgan bilimlar, ko`nikmalar, malakalar hamda dunyoqarash g`oyalarini jamlagan holda o`rganiladi. Chunki bilim ijtimoiy mehnat va tafakkur muhim bo`lib, mavzuni yoritishda mavjud ma'lumotlarni til vositasi bilan ifoda qiladi. Ko`nikma esa mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig`indisidir. Bu iqtidor va ko`nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Ayniqsa o`qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va rejalar asosida tayyorlangan jadvallarni mustaqil to`ldirish orqali o`quvchilarda geografik ko`nikmalarni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi

Bitiruv ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va iborat. Mazkur ish tugallangan ish bo`lib, ishni himoyaga tavsiya etaman.

***Navoiy shahar 8-umumiy o`rta ta`lim
maktabi geografiya fani o`qituvchisi:***

HIMOYA VAQTI

Bitiruv malakaviy ishini baholash mezon

Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya o`qitish metodikasi kafedras

Bitiruv malakaviy ishi himoyasi

<i>Mavzuning dolzarbligi</i>	<i>Bajarilgan ishning mustaqillik darajasi</i>	<i>Ishning amaliy ahamiyati</i>	<i>Adabiyotlardan foydalanish darajasi</i>
<i>12</i>	<i>32</i>	<i>16</i>	<i>10</i>

<i>Ishning rasmiylashtirilishi</i>	<i>Bitiruv malakaviy ishining himoyasi</i>	<i>Umumiy ball</i>	<i>№</i>
<i>10</i>	<i>20</i>	<i>100</i>	

DAK raisi: _____

DAK a'zolari: _____
